2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI O‘ZBEKISTON

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 224 (1823), 2026-yil 29-oktabr, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI USTUVOR YO‘NALISHLAR BO‘YICHA INVESTITSIYA STRATEGIYASI ISHLAB CHIQILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 28-oktabr kuni sog‘liqni saqlash sohasiga investitsiya jalb qilish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va yirik tibbiyot obyektlarini barpo etish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Ayni paytda sog‘liqni saqlash sohasida umumiy qiymati 2,7 milliard dollar bo‘lgan 35 ta investitsiya loyihasidan iborat portfel shakllangan. Ular yangi ixtisoslashgan markazlar va ko‘p tarmoqli shifoxonalar qurish, mavjud tibbiyot muassasalarini jihozlash va zamonaviy kadrlar tayyorlashni qamrab oladi.

Yangi tibbiyot muassasalarini qurish va mavjudlarini modernizatsiya qilishda ularning joylashuvi, quvvati hamda ko‘rsatadigan xizmatlari aholining ehtiyojiga mos bo‘lishi muhim. Taqdimotda investitsiya loyihalarini shu asosda shakllantirish, ularga xususiy sektorni jalb etish va tibbiyot muassasalarini boshqarishning yangi usullarini joriy qilish masalalariga e’tibor qaratildi.

Xususan, Milliy onkologiya markazi, Respublika nevrologiya va insult markazi, Toshkent viloyatida kattalar uchun ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi, Qashqadaryo viloyatida yangi shifoxonalar hamda Nukus shahridagi onalar va bolalar markazini barpo etish, Termiz shahrida tibbiy ta’lim dasturlarini yo‘lga qo‘yish, davlat-xususiy sheriklik modeli asosida Samarqand shahrida 800 o‘rinli shifoxona, Buxoro viloyatida ko‘p tarmoqli tibbiyot muassasasini tashkil etish rejalashtirilgan.

Taqdimotda ushbu loyihalar doirasida amalga oshirilayotgan ishlarning borishi haqida ma’lumot berildi.

Bundan tashqari, umumiy qiymati 1 milliard dollar bo‘lgan to‘qqizta istiqbolli loyiha bo‘yicha takliflar shakllantirilgan. Ular nevrologiya va insult, ruhiy salomatlik va narkologiya xizmatlari, bolalar onkologiyasi va gematologiyasi infratuzilmasini rivojlantirish, shoshilinch tibbiy yordamni takomillashtirish, uning avtoparkini yangilash hamda tibbiy kadrlar tayyorlashni qamrab oladi.

Kelgusida tibbiyotga investitsiya jalb qilish sog‘liqni saqlash infratuzilmasining master-rejasi bilan bog‘lanadi. Shu asosda 2040-yilgacha mo‘ljallangan investitsiya strategiyasini ishlab chiqish taklif etildi. Avvalo, amaldagi loyihalar xatlovdan o‘tkazilib, ularning dolzarbligi va amalga oshirish imkoniyatlari baholanadi. Keyin hududlar ehtiyojiga mos loyihalar tanlanib, ularning investitsiya pasportlari va yagona portfeli shakllantiriladi. Strategiya xususiy investorlar, xalqaro moliya institutlari va donorlar bilan ishlashda ustuvor yo‘nalishlarni belgilab beradi.

Tibbiyot muassasalari faoliyatiga xususiy sektorni jalb qilishning muhim yo‘nalishi — autsorsing. Kelgusi yildan amal qiladigan yangi tartibga ko‘ra, muassasalar ayrim tibbiy va yordamchi xizmatlarni xususiy tashkilotlardan xarid qilishi mumkin bo‘ladi. Bunda xizmat ko‘rsatuvchi bilan uzoq muddatli shartnoma tuzish, xizmat hajmi va sifatini oldindan belgilash, natijani aniq mezonlar asosida baholash taklif etilmoqda. 2030-yilga borib xizmatlar xaridida autsorsing ulushini 30 foizga yetkazish maqsad qilingan.

Ushbu jarayonni shaffof yuritish uchun “Tibbiyot autsorsingi” elektron tizimini joriy etish rejalashtirilgan. Unda xizmatlar, ijrochilar va shartnomalarning yagona reyestri yuritilib, ko‘rsatilgan xizmat hajmi, sifati hamda to‘lovlar kuzatib boriladi. Tizimni davlat xaridlari bilan bog‘lash ham nazarda tutilmoqda.

Yirik tibbiyot tashkilotlariga professional boshqaruvchilarni jalb qilish masalasi ham muhokama markazida bo‘ldi. Ularni ochiq tanlov asosida saralash va faoliyatini har yili belgilangan natija ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholash ko‘zda tutilgan. 2030-yilgacha beshta yirik muassasada shunday boshqaruvni yo‘lga qo‘yish rejalashtirilmoqda.

Davlatimiz rahbari sohaning investitsiya strategiyasi va taqdim etilgan loyihalarni master-reja asosida puxta ishlab chiqish, amaldagi loyihalarni jadallashtirish yuzasidan mutasaddilarga ko‘rsatmalar berdi.

O‘zA

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTINING NAVBATDAGI SAMMITIDA ISHTIROK ETADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘anning taklifiga binoan 29-30-oktabr kunlari amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari Anqara shahrida Turkiy davlatlar tashkilotining “Turk asri: tilda, fikrda va ishda birlik” mavzusidagi navbatdagi sammitida ishtirok etadi.

Tashkilot doirasida ko‘p tomonlama hamkorlikni, avvalo, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-logistika va madaniy-gumanitar sohalarda, shuningdek, turizm, ekologiya va ta’lim yo‘nalishlarida yanada kengaytirish va mustahkamlashning dolzarb masalalari ko‘rib chiqiladi.

Delegatsiyalar rahbarlari xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashadilar.

Sammit yakunlari bo‘yicha Anqara deklaratsiyasi hamda tashkilotga a’zo mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli sheriklikni rivojlantirishga qaratilgan qator qo‘shma qaror va hujjatlar qabul qilinishi rejalashtirilgan.

O‘zA

TDT: UMUMIY TARAQQIYOT VA HAMKORLIKNING USTUVOR YO‘NALISHLARI SARI

29–30-oktabr kunlari O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev amaliy tashrif bilan Turkiyada bo‘lib, Anqara shahrida o‘tkaziladigan Turkiy davlatlar tashkiloti sammiti tadbirlarida ishtirok etadi.

Bugungi global iqtisodiy-siyosiy sharoitda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash, o‘zaro ishonchni oshirish, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish hamda umumiy tarixiy merosni asrab-avaylash xalqaro munosabatlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Bu borada Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) turkiy xalqlar o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirish, o‘zaro strategik sheriklikni kengaytirish va umumiy taraqqiyot maqsadlariga erishishga xizmat qiluvchi muhim mintaqaviy tuzilma hisoblanadi.

O‘zbekistonning TDT doirasidagi faol ishtiroki, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslar va ularni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tashkilotning amaliy salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Davomi 2-betda

“BIZ KATTA YO‘LGA CHIQDIK!”

yoxud Prezidentimizdan bir soatlik saboq

Yangi O‘zbekiston ruhi



Davlatimiz rahbari “Markaziy Osiyo — AQSH” (C5+1) formatidagi muloqot ishtirokchilarini qabul qilish uchun Samarqandga bir kun oldin tashrif buyurganining maqsadini mehrli ehtiros bilan o‘zi aytib qo‘ya qoldi:

“Bugun Samarqand dunyo mashvaratining markaziga aylandi. Uni butun dunyo yaxshi ko‘radi. Mening ham Samarqandga mehrim bo‘lakcha. Chunki viloyatning birinchi rahbari bo‘lib ishlash jarayonida bu zaminning haqiqiy sehrini sezganman, samarqandliklarning uddaburon, ma’rifatli ekanligiga ishonch hosil qilganman. Shu sababli yangi ko‘prik bahonasida sizlar bilan diydorlashishni niyat qildim”.

Tabiiyki, jamoatchilik vakillari — deputatlar, faxriylar, ishbilarmonlar, olimlar, yoshlar o‘z Prezidentining Samarqandga e’tibori kuchli ekanini bilgani uchun qalblarida o‘zgacha quvonch tuydi. Ehtimol Samarqand shahrini Shirin shaharchasi bilan bog‘lovchi, Qoradaryo ustida qurilgan 650 metrli ko‘prik Prezidentimiz tashabbusi bilan barpo etilayotgan boshqa ulug‘vor binolar oldida oddiy ko‘rinar. Biroq biz uchun bu inshoot osmon ustiga qo‘yilgan qasrga o‘xshab tuyuldi. Chunki u bundan 25 yil avval aynan Shavkat Mirziyoyev o‘ylagan rejaning asosi edi.

O‘shanda aeroport orqasini, daryo sohillarini o‘rganish chog‘ida Prezidentimizning **“Bu maydonlar Samarqandning darvozasi hisoblanadi, qolaversa, shaharni kengaytirishning katta imkoni, qani endi daryo ustiga ko‘prik qurib yo‘l ochsak, ko‘plab muammolarimiz hal bo‘lar edi”,** degan so‘zlarini hamon eslaymiz.

Ikkinchidan, bu ko‘prik sayyohlik industriyasining ham timsoli. Binobarin, inshootni o‘z pulimizga, o‘z quruvchilarimiz, o‘z muhandislarimiz barpo etdi. Ana shu faxr, iftixor qalbimizni osmon qadar ko‘tarib turdi.

Bu fikrlarni bildirganimizda davlatimiz rahbari ham to‘lqinlanib ketdi va xalqaro hamjamiyat bilan ishonch ko‘priklarini, hamkorlik ko‘priklarini qanchalik ko‘p qursak, u bizga shuncha salohiyat keltirishini aytdi.

Shu o‘rinda ayrim davlat rahbarlari, yirik korporatsiyalar boshliqlari bilan yillar davomida biz uchun kerakli muammolar ustida o‘tkazilayotgan muzokaralar mohiyati haqida o‘rtoqlashdi. Yillar davomida O‘zbekistonga ikkinchi, hatto uchinchi darajali sifatida qarab kelingan. Ana shunday nuqtai nazarni keskin o‘zgartira olish oson emasligini, hatto o‘z hamkorining fikrini o‘zgartirish nechog‘liq qiyinligini bilgan inson uchun bu holatni tushunish qiyin emas. Zotan, biz shu jarayonlar samarasini ko‘rib turibmiz.

Dunyo yurtimiz bilan hamkorlik qilishga intilyapti

Bu haqda gap ketarkan, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rektori, professor, Oliy Majlis Senati a’zosi, taniqli olim Rustam Xolmurodov ko‘nglidagi gapni yashira olmadi:

“Ikki tizimni, hatto mustaqillik yillarida ham ikki xil ish uslubini ko‘rgan kishi sifatida bir holat meni hayratga soladi. Mamlakatda siz boshlagan islohotlar kirib bormagan soha qolmadi hisob. Insonning tug‘ilishidan tortib, to oxirgi kunigacha bo‘lgan hayotidagi har bir jarayon e’tiboringizda. Buning ustiga, xalqaro aloqalarda ham boshqalardan o‘zgacha diplomatiya bilan ishlayapsiz. Bilasizmi, AQSH davlat kotibi Marko Rubio bilan birga kelgan yordamchilardan biri bugun menga qo‘ng‘iroq qilib, Samarqand Kvant markazi olimlari bilan hamkorlik qilish niyati borligini aytdi.

Davomi 3-betda

BUGUNGI MURABBIYLIK

zimmamizga har qachongidan ko‘p mas‘uliyat yuklaydi

1965-yili maktabni tamomlayotgan paytim sport mashg‘ulotida jarohat olganman. Shifoxonada davolanar ekanman, tibbiyot xodimlariga havas qilib, shu kasbni egallashni dilimga tugdim. Bir oz muddat Urganch tumani markaziy shifoxonasida haydovchi sifatida ishlab, keyin hozirgi Toshkent davlat tibbiyot universitetining davolash fakultetiga o‘qishga kirdim. Oliy ta’lim muassasasini tamomlagach, faoliyatimni teri-tanosil kasalliklari kafedrasi bilan bog‘ladim. Shifokorlikdan kafedra mudiri darajasigacha bo‘lgan sharafli yo‘lda klinik ordinator, assistent, dotsent va professor kabi lavozimlarida mehnat qildim.

2005-yili Toshkent tibbiyot akademiyasi tashkil etilgach, 2013-yilgacha akademiyaning teri-tanosil kasalliklari kafedrasini boshqardim. Hozir Toshkent davlat tibbiyot universiteti professori lavozimida ishlab kelyapman.

Ilmiy faoliyatim o‘ta dolzarb tibbiy muammolarni hal qilish bilan uzviy bog‘liq. 1978-yili dermatovenerologiya ixtisosligi bo‘yicha “O‘tkir nekrotik teri leyshmaniozini davolashda kollagen-monomitsin kompleksini qo‘llashning klinik-eksperimental asoslanishi” mavzusida nomzodlik dissertatsiyamni yoqladim. Ushbu ilmiy izlanishlarim natijasida ishlab chiqilgan yangi dori — “Kollamon” (kollagen-monomitsin kompleksi) va uni qo‘llashning yangi davolash usuli tibbiyot amaliyotiga kiritildi hamda yurtimizda leyshmanioz muammosini keskin kamaytirishga xizmat qildi.

Davomi 2-betda

MILLIY YOZUV, TARIXIY MEROS VA ZAMONAVIY EHTIYOJLAR UYG‘UNLIGI



6

Hozirda TDTga a’zo davlatlarning umumiy maydoni 4,25 million kvadrat kilometrdan oshadi, aholisi 170 milliondan ziyod. 2025-yilda ushbu mamlakatlarning yalpi ichki mahsuloti hajmi qariyb 2,3 trillion AQSH dollarini, tashqi savdo aylanmasi esa 1,2 trillion dollardan ortiqni tashkil etdi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 29-oktabr, 224-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

TDT: UMUMIY TARAQQIYOT VA HAMKORLIKNING USTUVOR YO‘NALISHLARI SARI

Boshlanishi 1-betda

Ayniqsa, transport-logistika, raqamlashtirish, energetika, ta’lim, ilm-fan va madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish bo‘yicha bildirilayotgan takliflar turkiy davlatlar hamkorligining yangi bosqichini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

2026-yil 29-30-oktabr kunlari Turkiyaning Anqara shahrida o‘tkaziladigan TDTning 13-sammiti mazkur hamkorlikni yanada kengaytirish, ustuvor vazifalarni belgilash va amaliy tashabbuslarni yangi bosqichga olib chiqishda katta rol o‘ynaydi.

“Turk asri: tilda, fikrda va ishda birlik” mavzusida o‘tkaziladigan Anqara sammiti turkiy davlatlar o‘rtasidagi siyosiy muloqotni mustahkamlash, iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va madaniy-gumanitar aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan muhim ko‘p tomonlama tadbirdir.

Mazkur shior turkiy xalqlarning til va madaniyat mushtarakligi, o‘zaro hamjihatlik hamda umumiy maqsadlar yo‘lida birgalikda harakat qilishga intilishini ifoda etadi. Bu g‘oyalar Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Abdurauf Fitrat kabi o‘zbek jadid ma’rifatparvarlarining milliy uyg‘onish, ilm-ma’rifat, til va madaniyatni rivojlantirish, jamiyat taraqqiyoti yo‘lida birlashish haqidagi qarashlari bilan hamohangdir.

Shu ma’noda, Anqara sammiti turkiy xalqlarni bog‘lab turuvchi mushtarak tarixiy-madaniy merosga tayangan holda davlatlar o‘rtasidagi birdamlikni mustahkamlash, o‘zaro ishonchni oshirish va ko‘p tomonlama hamkorlikni aniq amaliy natijalar bilan boyitish uchun muhim imkoniyat yaratadi.

Sammitda O‘zbekiston, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Turkiya davlatlari rahbarlari, kuzatuvchi davlatlar vakillari hamda TDTning tegishli tuzilmalari rahbarlari ishtirok etadi.

Sammit kun tartibining asosiy mazmuni turkiy davlatlar hamkorligining bugungi holatini baholash, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish va istiqboldagi vazifalarni belgilashdan iborat bo‘ladi.

Bunda siyosiy muloqot, savdo-iqtisodiy aloqalar, investitsiyaviy hamkorlik, transport yo‘laklarining samaradorligi, raqamli texnologiyalar, energetika xavfsizligi va madaniy yaqinlik masalalari muhim o‘rin tutishi kutilmoqda.

Turkiyadagi yig‘ilishda yakuniy deklaratsiyani qabul qilish, TDT Bosh kotibi va uning o‘rinbosarlari nomzodlarini tasdiqlash nazarda tutilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 2027-yilni TDT doirasida “Tabiatni asrash yili” deb e’lon qilish to‘g‘risidagi tashabbus sammit deklaratsiyasida o‘z aksini topishi kutilmoqda.

Anqara sammitining yana bir muhim jihati — turkiy davlatlarning o‘zaro birdamligini amaliy loyihalar orqali mustahkamlashdir. Zero, tashkilotning samaradorligi savdo hajmining o‘sishi, investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi, transport jarayonlarining soddalashtirilishi va aholi o‘rtasidagi aloqalarning kengayishi bilan belgilanadi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, turkiy tilli davlatlar rahbarlarining birinchi sammiti 1992-yil Anqara shahrida o‘tkazilgan. Ushbu uchrashuv turkiy davlatlar o‘rtasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni shakllantirishda muhim qadam bo‘ldi.

Keyingi sammitlar 1994-yil Istanbulda, 1995-yil Bishkekda, 1996-yil Toshkentda, 1998-yil Ostonada, 2000-yil Bokuda, 2001-yil Istanbulda, 2006-yil Antaliyada va 2009-yil Naxichevanda tashkil etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2018-yildagi Turkiy tilli davlatlar sammitida ishtirok etganidan so‘ng 2019-yilda O‘zbekiston tashkilotga to‘laqonli a’zo bo‘lib kirdi. 2021-yil Istanbulda o‘tkazilgan sammitda Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashini Turkiy davlatlar tashkiloti deb qayta nomlash to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Bu o‘zgarish tashkilotning xalqaro maqomi va hamkorlik qamrovini ifodalovchi muhim bosqich bo‘ldi.

Bugungi kunda TDTning asosiy maqsadi a’zo davlatlar o‘rtasida har tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, o‘zaro ishonch va do‘stlikni mustahkamlash, mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni qo‘llab-quvvatlash hamda savdo, investitsiya, transport, energetika, ta’lim, ilm-fan va madaniyat sohalaridagi aloqalarni kengaytirishdan iborat.

Hozirda TDTga a’zo davlatlarning umumiy maydoni 4,25 million kvadrat kilometrdan oshadi, aholisi 170 milliondan ziyod. 2025-yilda ushbu mamlakatlarning yalpi ichki mahsuloti hajmi qariyb 2,3 trillion AQSH dollarini, tashqi savdo aylanmasi esa 1,2 trillion dollardan ortiqni tashkil etdi.

O‘zbekiston Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi hamkorlikni tarixiy va madaniy yaqinlik bilan cheklab qo‘ymasdan, uni iqtisodiy taraqqiyot, investitsiya, transport, innovatsiya va mintaqaviy barqarorlikka xizmat qiluvchi amaliy mexanizmlar bilan boyitishga intilib kelmoqda.

“Prezident Shavkat Mirziyoyev 2018-yildagi Turkiy tilli davlatlar sammitida ishtirok etganidan so‘ng 2019-yilda O‘zbekiston tashkilotga to‘laqonli a’zo bo‘lib kirdi. 2021-yil Istanbulda o‘tkazilgan sammitda Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashini Turkiy davlatlar tashkiloti deb qayta nomlash to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Bu o‘zgarish tashkilotning xalqaro maqomi va hamkorlik qamrovini ifodalovchi muhim bosqich bo‘ldi.

O‘zbekistonning TDTga a’zo mamlakatlar hamda Turkmaniston va Vengriya bilan o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 2017-yildagi 4,13 milliard dollardan 2025-yilda 10,82 milliard dollarga yetdi. 2026-yilning yanvar-iyul oylarida esa ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 19,8 foizga o‘sdi.

Shu bilan birga, sherik mamlakatlarning O‘zbekiston iqtisodiyotidagi ishtiroki kengayib bormoqda. 2026-yil avgust holatiga ko‘ra, yurtimizda ushbu davlatlar kapitali ishtirokida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni 4871 tani tashkil etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar tashkilot faoliyatini aniq maqsad va natijalarga yo‘naltirish, mavjud imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish hamda a’zo davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan. O‘zbekiston yetakchisi tomonidan 2019-yildan buyon yuzdan ortiq tashabbus ilgari surilgan. Ushbu tashabbuslarni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritalari” qabul qilingan.

O‘zbekiston tashabbuslarining muhim yo‘nalishlaridan biri turkiy xalqlarning umumiy tarixiy xotirasi, madaniy merosi va ma’naviy qadriyatlarini asrab-avaylashdan iborat. Bu borada “Turkiy dunyo xartiyasi”ning qabul qilinishi, Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotning ta’sis etilishi, turkiy davlatlar adabiyotining sara namunalaridan iborat yuz jildlik kitoblar turkumining nashr qilinishi muhim natijalar hisoblanadi.

2022-yil O‘zbekiston Samarqand shahrida TDT sammiti mezboni sifatida tashkilotga raislik qildi. Sammit chog‘ida O‘zbekiston Prezidenti qo‘shilgan qiymat yaratadigan ishlab chiqarish zanjirlarini barpo etish hamda tayyor mahsulotlarni eksport qilish orqali uchinchi davlatlar bozorlariga chiqish bo‘yicha qator takliflar bildirdi.

Samarqand shahriga doimiy asosda “Turkiy sivilizatsiya poytaxti” maqomining berilishi O‘zbekistonning umumiy tarixiy va madaniy merosni xalqaro miqyosda targ‘ib qilishga qo‘shayotgan hissasini ifodalaydi. Xiva shahrining 2020-2021-yillarda “Turkiy dunyoning madaniy poytaxti” deb e’lon qilinishi ham ushbu yo‘nalishdagi muhim tashabbuslardan biridir.

2024-yilgi Bishkek sammitida Prezidentimiz uzoq muddatli loyihalarni amalga oshirishning siyosiy asosini mustahkamlaydigan Strategik sheriklik to‘g‘risidagi bitimni tuzish tashabbusini ilgari surdi.

2025-yilda O‘zbekiston a’zo davlatlar ishbilarmonlik doiralari o‘rtasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan qator mexanizmlar tashabbuskori bo‘ldi. Jumladan, Budapeshtda bo‘lib o‘tgan uchrashuvda O‘zbekiston Prezidenti turkiy davlatlar o‘rtasidagi savdo uchun “TURK-TRADE” platformasini yaratish, Sanoat kooperatsiyasi dasturini tayyorlash, yagona investitsiya portalini ishga tushirishni taklif qildi.

Bu takliflar biznes hamkorlarini izlashdan boshlab, investitsiya imkoniyatlarini namoyish etish hamda qo‘shma ishlab chiqarish loyihalarini tayyorlash va amalga oshirishgacha bo‘lgan o‘zaro hamkorlikning izchil bosqichlarini qamrab oladi.

O‘zbekiston va sherik davlatlar o‘rtasidagi ikki tomonlama investitsiyaviy munosabatlar ishlab chiqarish quvvati va obyektlarini rivojlantirish uchun muhim asos yaratadi. Masalan, 2025-yilda Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya, Turkmaniston va Vengriyadan kiritilgan investitsiyalar hajmi qariyb 4,29 milliard dollarni tashkil etdi.

2026-yilda umumiy qiymati 17,24 milliard dollarlik 280 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish ishlari olib borilmoqda. Bu loyihalar doirasida yanvar-avgust oylarida o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 3,84 milliard dollarga yetdi.

Transport sohasida TDT miqyosidagi hamkorlikning muvaffaqiyatli amaliy modeli sifatida elektron ruxsatnomalar tizimi (E-Permit) ishga tushirildi. Bu tizim dastlab O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi qo‘shma loyiha sifatida boshlandi. Keyinchalik uning qo‘llanish doirasi kengaydi va hozirda tashkilotning barcha a’zo davlatlari o‘rtasidagi transport qatnovlarini qamrab olmoqda.

Transport tarmoqlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yanada rivojlantirish tariflar va yig‘imlarni muvofiqlashtirish, bojxona muomalalarini raqamlashtirish hamda logistika markazlari faoliyatini takomillashtirish bilan chambarchas bog‘liq.

Shu bois, O‘zbekiston “O‘rta yo‘lak”ni ayni paytda qurilishi davom etayotgan “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li hamda kelajakda ishlab chiqilishi rejalashtirilayotgan Transafg‘on transport yo‘lagi loyihasi bilan bog‘lashni taklif qilmoqda.

2026-yil Turkiston shahrida bo‘lib o‘tgan sammitda O‘zbekiston Prezidenti mintaqaviy ma’lumotlar markazlarini yuqori tezlikdagi aloqa tarmoqlari orqali bog‘lashni nazarda tutuvchi “Turkiy raqamli yo‘lak” loyihasini ishlab chiqish tashabbusini ilgari surdi.

Bu tashabbuslar kelajakdagi iqtisodiy o‘sishning istiqbolli manbalaridan biri — bir necha bozorlarda faoliyat yuritish va kengayish imkoniga ega bo‘lgan texnologiyalar, innovatsiyalar hamda tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan.

Mamlakatimiz tomonidan bildirilayotgan tashabbuslar TDTga a’zo davlatlar o‘rtasida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, o‘zbek mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish hamda ularning mintaqaviy va xalqaro bozorlardagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Anqarada o‘tkaziladigan TDTning 13-sammiti doirasida siyosiy muloqotni davom ettirish bilan bir qatorda, avval ilgari surilgan tashabbuslarning ijrosini jadallashtirish va yangi hamkorlik yo‘nalishlarini belgilash nazarda tutilgan.

Eng muhimi, turkiy davlatlar hamkorligining kelgusi natijalari qabul qilinadigan hujjatlar soni bilan emas, balki ularning hayotga tatbiq etilishi, xalqlar farovonligiga qo‘shadigan hissasi va umumiy taraqqiyot uchun yaratadigan imkoniyatlari bilan baholanadi.

“Dunyo” AA

BUGUNGI MURABBIYLIK zimmamizga har qachongidan ko‘p mas‘uliyat yuklaydi



Faxr

Boshlanishi 1-betda

Keyingi ilmiy izlanishlarimni vitiligo kasalligi — teridagi oq dog‘lar paydo bo‘lishining sabablarini o‘rganish hamda uni davolash imkoniyatlari tadqiqiga qaratdim. O‘rganishlarim samarasi o‘laroq, 1989-yili “Issiq iqlim sharoitida vitiligoning rivojlanishi va kechishida gormonal buzilishlarning o‘rni hamda kompleks fotoximioterapiya usulini ishlab chiqish” mavzusida doktorlik dissertatsiyamni yoqladim. Ushbu tadqiqotlar asosida Toshkentda “Kupir” nomli yangi dori ishlab chiqilib, amaliyotga keng tavsiya etildi. Yangi davolash usuli shifokorlarimizga dunyoda birinchilar qatori vitiligo bilan og‘rigan bemorlarni samarali davolash imkoniyati mavjudligini ishonch bilan aytishga asos bo‘ldi.

O‘sha yili rahbarlik lavozimlariga takliflar bo‘ldi. Biroq o‘zim sevgan shifokorlik va ilm-fan yo‘lini davom ettirdim. O‘zbekiston dermatovenerologlar assotsiatsiyasiga asos solib, 10 yildan ziyod vaqt uning prezidenti sifatida faoliyat yuritdim. Ayni paytda ham sevimli oliy ta’lim muassasamda professor sifatida bo‘lajak tibbiyot xodimlari bilan birgaman.

Ko‘plab shogirdlar, jumladan, 7 nafar tibbiyot fanlari doktori va 29 nafar tibbiyot fanlari nomzodini tayyorladim. 9 ta ixtiro, 400 dan ortiq ilmiy maqola, shifokorlar uchun 18 ta uslubiy qo‘llanma, 12 ta monografiya muallifiman. Universitet talabalari uchun uch tilda dermatovenerologiya bo‘yicha darsligim va 18 ta o‘quv qo‘llanmam chop etilgani va ulardan yoshlar foydalanayotganidan benihoya xursandman.

Mehnatim davlatimiz tomonidan yuksak e’tirof etilib, “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash a’lochisi” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandim. Endi esa “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi” faxriy unvoniga ega bo‘lib turibman. Bu zimmamga yana ham ko‘p mas’uliyat yuklaydi. Zero, bugunning yoshlariga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, murabbiylik qilish har qachongidan ham ko‘ra izlanishni talab etadi. Bu yo‘lda ishonch va e’tirofga yarasha xizmat qilishga bor kuchimni safarbar etaman.

Adhamjon VAISOV,
Toshkent davlat tibbiyot universiteti professori,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi

Izhor

Yaponiyada bo‘lib o‘tgan V yozgi Paraosiyo o‘yinlaridagi tarixiy yutuqlarimiz quvonchi ona Vatanimizdagi o‘ta ko‘tarinki kutib olish marosimi zavqiga ulanib ketdi. Yigirma kunlik o‘quv-yig‘in mashg‘ulotlari, bir hafta davomidagi stress, charchoqdan horigan sportchilarimizning, biz — murabbiylarning barcha mashaqqati yuvilib ketgandek bo‘ldi. Bizga davlatimiz rahbari topshirig‘i bilan eng zamonaviy, eng katta samolyotlardan biri ajratilganining o‘zi parasport qanchalar qadr topgani, sportchilarimizning hurmati nechog‘liq ekanini ko‘rsatdi. To‘qqiz soat uchgan bo‘lsak-da, yo‘l charchog‘ini sezmadik.

Tantanali kutib olish marosimi avvalida eshitganimiz — davlatimiz rahbarining bizga yo‘llagan tabrigi barchamizni oldinda turgan musobaqalarga, keyingi g‘alabalarga ruhlantirdi. Bellashuvlarda muhim omil bo‘lgan matonat, jasorat, Vatan sha’nini munosib himoya qilish maqsadimiz alohida e’tirof etilganidan mamnun bo‘ldik. 45 oltin, 49 kumush va 51 bronza medal bilan umumjamoa hisobida uchinchi o‘rinni egallaganimiz tarixiy natija sifatida baholangani bizga yanada ko‘tarinkilik bag‘ishladi. Hatto shu yerning o‘zidan to‘g‘ri stadionga borib, mashg‘ulotlarni davom ettirgimiz keladigan darajada to‘lqinlandik. Chunki paralimpiya o‘yinlariga ko‘p vaqt qolmadi.

Kuni kecha ochilish marosimi bo‘lib o‘tgan II Prezident olimpiadasida ham bayramona bezatilgan stadionga hududiy terma jamoalar, paraosiyo o‘yinlari g‘oliblari saf tortib chiqqani juda hayajonli bo‘ldi.



G‘OLIBLIK FAQAT SPORTCHIGAGINA BOG‘LIQ EMAS

Katta maydonda davlatimiz rahbarining “Bugun parasportchi o‘g‘il-qizlarimizning matonati va jasoratini ham alohida e’tirof etmoqchiman”, degan so‘zlarini va ko‘plab parasportchilarning nomini yuzlab bo‘lg‘usi sportchilar eshitdi. Paraosiyo o‘yinlarida ishtirok etgan hamma sportchilar va ota-onalari, murabbiylariga minnatdorlik bildirildi. Mamlakatning eng nufuzli sport olimpiadasidagi bunday e’tirof sportdagi tenglikning yana bir yorqin isboti bo‘ldi.

Bugun paralimpiya sportiga qaratilayotgan e’tiborni ko‘rib, uzoq yillar parasportchilar nazardan chetda qolgani, shu bois, bu yo‘nalishda sezilarli siljish bo‘lmagani, nogironligi bo‘lgan shaxslarga hozirgidek munosabat ko‘rsatilmagani sababi haqida o‘ylab qolaman. Hozir g‘amxo‘rlik tufayli parasportimiz rivojlanib, dunyoga tanildi. Chet ellik murabbiylar, raqib jamoalar hayrat bilan bizdagi bunday keskin o‘sish sababi haqida ko‘p so‘raydi. Ularga “Bizning har bir sohani, farzandlarini, xalqini ardoqlaydigan va mehrini ertamiz egalariga ulashadigan



Prezidentimiz bor” deb maqtanamiz. Zero, bunday o‘sish, qator g‘alabalar faqat murabbiy yoki iqtidorli sportchining mehnati evazigagina bo‘lmaydi. Sportchiga shart-sharoit yaratilmasa, qanday qilib dunyoga chiqamiz, mahoratimizni qayerda ko‘rsatamiz?!

To‘g‘ri, sport katta xarajat talab qiladi, lekin millat imiji, davlatning, xalqning xarakterini ko‘rsatadigan soha bo‘lgani uchun Prezidentimiz bu yo‘lda qancha mablag‘ kerak bo‘lsa, ajratyapti. Bu to‘g‘ri va oqilona siyosat sabab sportni rivojlantirish va kelajagimizni u orqali sog‘lomlashtirishga erishyapmiz. Xalqimiz orasida sportga ommaviy qiziqish uyg‘ondi. Eng muhimi, nogironligi bor farzandlarini ham sport maktablariga bemalol yetaklab keladigan ota-onalar soni sezilarli ortdi. Jamiyatimizda inklyuziv muhit yaratishga hech qanday to‘siq bo‘lmasligi ortidan bunday bolalar o‘z tengdoshlariga emin-erkin qo‘shilib, ular orasida o‘z o‘rnini topishga intilyapti. Xususan, sportda bu tenglik tarixda kuzatilmagan natijalarga sabab bo‘lyapti. Shunday ekan, yurtimiz parasportining kelajagi yorug‘, maqsadi aniq.

Sardor ABDUXOLIQOV,
O‘zbekiston parayengil atletika terma jamoasi bosh murabbiyi

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Yangi O‘zbekiston ruhi

Biz juda katta yo‘lga chiqdik. Endi orqaga qaytish yo‘q. Chunki bu yo‘limiz to‘g‘ri ekanligini dunyo tan olyapti! Bu yo‘limiz to‘g‘ri ekanligini xalqimiz hayoti farovonligining kundan kunga oshib borayotganligi ko‘rsatib turibdi. Biz hamma sohada baravar qadam tashlashimiz kerak.

2026-yil 29-oktabr, 224-son

“BIZ KATTA YO‘LGA CHIQDIK!”

yoxud Prezidentimizdan bir soatlik saboq



Farmon TOSHYEV,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist

Boshlanishi 1-betda

Ular o‘zlari tashabbus ko‘rsatyapti. Bu hazilakam gap emas, yurtimizdagi ilmiy salohiyatning dunyoning eng qudratli davlati tomonidan e’tirofi. Ochig‘i, qanchalik fidoyi bo‘lmaylik, islohotlar shitobiga ulgura olmay qolyapmiz...”.

Rustam Xolmurodov haq gapni aytdi. Mamlakatimizda boshlangan islohotlar o‘n yil ichida butun dunyoga bo‘y-basti bilan namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, yangi O‘zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yo‘lidagi islohotlar samarasida mamlakatimizning tom ma’noda yangi taraqqiyot davri boshlandi.

Aslida, bu haqda juda ko‘p va xo‘p yozish mumkin. Zero, bu borada bosib o‘tilgan yo‘l, chekilgan mashaqqatli mehnat, erishilgan tarixiy natijalar tahlili bir necha o‘n tomlik kitoblarga sig‘maydi. Shuning uchun birgina jihatni aytish bilan kifoyalanaman: mamlakatimiz yalpi ichki mahsulot hajmini 2030-yilda 160 milliard dollarga yetkazish reja qilingan edi. Buni qarangki, ushbu marra joriy yilning o‘zida ortig‘i bilan bajarilishi va O‘zbekiston daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoriga kirishi kutilyapti.

Garchi bu kabi iqtisodiy yutuqlar biz uchun tarixiy, xalqaro hamjamiyat uchun esa global logistikadagi uzilishlar va dunyodagi notinch vaziyat fonida sensasion natija hisoblansa-da, bularni birinchi o‘ringa qo‘yish adolatdan bo‘lmaydi. Chunki eng katta yutug‘imiz — Prezidentimiz tashabbusi va qat’iy talablari asosida davlat va xalq o‘rtasida ishonch qayta tiklangani, jamiyatdagi qo‘rquv va hadik o‘rnini xalqimizga xos bunyodkorlik, tadbirkorlik, vatanparvarlik, hamjihatlik tuyg‘ulari egallaganidir. Boya yuqorida aytilgan raqam ana shu birligimiz, yurt taqdiriga daxldorligimiz, hamfikrligimizning dastlabki samarasi, xolos.

Ha, haqiqatan ham biz bugun uch ming yildan ortiq milliy davlatchiligimiz tarixidagi eng buyuk evrilishlardan birining guvohi bo‘lib turibmiz. Keling, bunga Samarqand viloyati misolida nazar tashlaylik.

Shahar va qishloq tafovuti yo‘qolyapti

O‘tgan o‘n yil ichida har bir tumanda zamonaviy shaharchalar paydo bo‘ldi, istirohat bog‘lari barpo etildi. “Yangi O‘zbekiston” massivlarida AT markazlar ishlab turibdi. Samarqand xalqaro turizm markazi endilikda dunyo hamjamiyatining yirik anjumanlari, siyosiy muloqotlar o‘tkaziladigan maskanga aylandi. Imom Buxoriy majmuasi qaytadan, buyuk muhaddisning islom olamida tutgan o‘rniga monand ulug‘vor tarzda barpo etildi.

Qishloqlarimizda tuproq yo‘llar qolmadi hisob. Bugun Samarqand dalalarida yetishtirilayotgan noz-ne’matlar dunyoga eksport qilinyapti. Trikotaj mahsulotlari va parrandachilikda eksport hajmi yil sayin oshmoqda. Har yili o‘nlab startap loyihalar ishlab chiqarishga joriy etilayotir. Bir so‘z bilan aytganda, xalq xo‘jaligining barcha sohasida o‘zgarishlar bor. Bu o‘zgarishlarni o‘z mutaxassislarimiz, olimlarimiz amalga oshirmoqda.

Prezidentimiz sabog‘i haqida gap borar ekan, bir voqea esimga tushdi. Shu yilning yoz oylarida Olmaliqda misni boyitish zavodi ishga tushirildi. Ushbu tadbirda men ham ishtirok etgandim. Shu yerda bir holatdan xabar topdim — Shavkat Mirziyoyev bunday korxona yaratish taklifini kiritganda deyarli barcha mutaxassislar bu ishning samarasi yo‘qligini aytgan.

Ammo Prezidentimiz Chilida sakkiz yil davomida qurilgan va hozircha dunyoda yagona hisoblangan shunday zavod hamda uning xomashyosi masalalarini erinmasdan puxta o‘rgangan va qat’iy qarorga kelgan. Tabiiyki, yuksak texnologiyalar rivojlangan davlatlardan uslubiy yordam so‘ralgan. Natijada Olmaliqdagi zavod Chilidagi kabi sakkiz emas, balki to‘rt yilda qurib bitkazildi. Bu ishni O‘zbekiston olimlari, mutaxassislari, muhandislari bajardi. Bu saboq soha mutaxassislari ishonchini yanada mustahkamladi. Ular endilikda zavodning ikkinchi blokini barpo etmoqda.



Prezidentimizning bizga bergan yana bir sabog‘ini eslamasdan ilojim yo‘q. Samarqand viloyatida birinchi rahbar bo‘lgan yillarida har bir sohaga shu tizimda tajriba orttirgan fidoyi pensionerlarni jalb etib, maslahat kengashlari tuzdi. Kengashlar joylarda ishlarni tashkil etishga ko‘maklashish barobarida jamoatchilik nazoratini ham amalga oshirdi. Mineral o‘g‘itga pul topilmagan chog‘da Kattaqo‘rg‘on shahrida faoliyatini tugatgan chorvachilik majmuasida yillar davomida to‘planib qolgan juda katta miqdordagi organik o‘g‘itni dalalarga tashish tashkil etildi.

Ayniqsa, Samarqand shahrini obodonlashtirishda hatto o‘zimiz ishonmagan ishni bajarib ko‘rsatdi, ya’ni viloyat jamoatchiligi yordamida shahar ko‘chalari tartibga keltirildi, chiqindidan tozalandi. Asta-sekin bu ish shahar tashkilotlari tomonidan tizimli yo‘lga qo‘yildi. Bugun ko‘hna kentdagi nafosat, go‘zallik, obod va toza ko‘chalar aynan o‘sha davrda boshlangan harakatlar samarasidir.

Ma’naviy jasorat

Davlatimiz rahbarining xalqaro maydondagi saboqlari ham e’tiborli. Ayniqsa, har bir davlat o‘z manfaati uchun jiddiy siyosat yuritayotgan bir paytda munosabatlarda halollik va hamkorlikni ta’minlay olish oson ish emas. Buning uchun ikki tomonlama juda katta ishonch kerak.

Ana shunday nozik bir paytda davlatimiz rahbari o‘zbeklarga xos bag‘rikengligini namoyish qildi. Avvaliga ikkilangan davlat rahbarlari ham harakatlarimizdagi samimiyatni ko‘rib, bizga moyillik bildirdi. Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida qisqa fursatda yo‘lga qo‘yilgan hamkorlik buning yaqqol misolidir.

Xalqaro saboq deganimning sababi bor. Davlatimiz rahbari boshqa davlatlar bilan hamkorlik bir martalik emas, balki doimiy va strategik sheriklik darajasida bo‘lishiga erisha oldi. Avvalo, bu munosabatlarning ilmiy-amaliy konsepsiyasi ishlab chiqildi. Bunda ehtiyojlarimiz, imkoniyatlarimiz puxta o‘rganildi. Natijada juda ko‘plab davlatlar bilan strategik, oliy darajadagi hamkorlik o‘rnatildi.

AQSH davlat kotibi Marko Rubioning O‘zbekistonga, aniqrog‘i, Samarqandga 200 dan ziyod ishbilarmon bilan birga kelishi — tarixiy voqea. Uning o‘zi ta’kidlaganidek, AQSHning bunday katta delegatsiyasi shu paytgacha birorta davlatga amaliy tashrif bilan bormagan. Buning ustiga, ularning keyingi yillardagi bu tarzdagi tashriflari favqulodda holat ro‘y bergan davlatlargagina bog‘liq. Yurtini, xalqini sevmagan odam bunday xislatga ega bo‘lmaydi.

Bir o‘ylab ko‘ring, konvertatsiyani ochib yuborish uchun o‘sha davrda yillar davomida ana shu yashirin iqtisodiyotdan mo‘may daromad olib turgan qanchalab nopok rahbarlarga yomon ko‘rinish yoki o‘sha tizimni qanchalik shiddat bilan isloh qilish kerak edi. Toshkent shahri “propiska”sini ochishda ham ana shunday jasorat zarur edi. Ishbilarmonlarni tekshirishga, daraxtlarni kesishga moratoriy e’lon qilinishi-chi?

Prezidentimiz ana shu jarayonlarda o‘zida jasorat topa oldi. Chunki mamlakatdagi hur fikrlovchi insonlarga, xalqiga ishondi. Natijada biz o‘z taqdirimizni o‘zimiz o‘zgartira boshladik va bugun mamlakat miqyosidagi loyihalarda butun O‘zbekiston ishtirok etyapti desam, mubolag‘a bo‘lmaydi.

“Yarmini biz ko‘taramiz”

Mamlakatimiz yetakchisining yana bir ibratli sabog‘i esimdan chiqmaydi. 2002-yilning bahori. Paxtachida men o‘qigan maktabda o‘quv binosining katta qismi kuchli yomg‘ir tufayli o‘pirilib tushdi. Shavkat Mirziyoyev viloyatning birinchi rahbari sifatida ertasigayoq o‘sha yerga bordi.

Imorat eski, ta’miri uchun ham anchagina mablag‘ kerak. Darslarni to‘xtatib bo‘lmaydi. Nima qilish kerak? Shunda ushbu maktabda o‘qigan ishbilarmonlar hamda xo‘jalik rahbari Fotima To‘xtapo‘latovani maslahatga taklif etdi. Hamma o‘z fikrini aytdi. Hudud bo‘yicha hokim o‘rinbosari mablag‘ kamligini bildirdi. Shavkat Mirziyoyev masalaning dolzarbligini aytib, qo‘lidan kelganicha yordam berishini tushuntirdi. Xo‘jalik raisi va tadbirkorlar xarajatning yarmini ko‘taradigan bo‘ldi va natijada maktab binosi qisqa fursatda ta’mirdan chiqarildi.

O‘shandan keyin juda ko‘p joylarda muammoni hal qilishda jamoatchilik, faollar, tadbirkorlar viloyat hokimi bilan uchrashuvda “yarmini biz ko‘taramiz” tashabbusi bilan chiqa boshladi. Byudjet mablag‘lari taqchil bir vaqtda bu tashabbus katta samara berdi. Bugun esa maktablar, bolalar bog‘chalari qurilishi va ta’miriga yetarlicha mablag‘ ajratilyapti. Bu saboq ham ana shunday xayrli ishlarning boshlanishiga asos bo‘lgan edi.

Sayyohlik — asosiy tarmoqlardan biri

Samarqand davlat tibbiyot universiteti professori, universitet birinchi klinikasi bosh vrachi Nargiza Abdullayeva xalqaro sayyohlikdagi islohotlar samarasi shifoxonalargacha yetib kelganini aytdi. Jumladan, o‘tgan yili ushbu shifoxonada davolanganlarning 12 foizini, joriy yilning hozirgacha bo‘lgan davrida 30 foizini xorijliklar tashkil qilgan. Endilikda Samarqandda eng murakkab jarrohlik operatsiyalari amalga oshirilmoqda. Buning uchun Amerika, Hindiston va Germaniyaga borishga hojat qolmayapti.

Bu mulohazadan keyin Prezidentimiz viloyatga hokim bo‘lib kelganidagi bir voqeani esladi. Charchoq tufayli yuragida bezovtalik sezgan va 1-klinikaga borgan. Hokim shifokor Anita Soy eski EKG uskunasidan foydalanganini ko‘rib, hayron qoladi. Samarqanddek joyda tibbiyotning ahvoli og‘irligidan afsus chekadi. Keyinchalik bosh vrach Nurmamat Abdullayev bilan birgalikda shifoxonani zamonaviy uskunalar bilan jihozlashga kirishadi. O‘sha harakatlarning samarasi bugun hammaga ayon: Samarqandda endi buyrak va jigar ko‘chirib o‘tkazish operatsiyalari amalga oshirilmoqda.

— Yaqinda xorijdagi anjumanda bir davlatning rahbari mendan “Harakatlaringiz yomon emas, bir yilda uch millionga yaqin sayyoh kelayotgandir?” deb so‘radi. Men unga bu raqam besh milliondan oshganini aytdim, — dedi davlatimiz rahbari. — Bu bor gap. Esimda, 2016-yilda mamlakatimizga bor-yo‘g‘i 650 ming sayyoh kelgan. Sharoitini qilgan edik, besh millionga yetdi. Imom Buxoriy majmuasi ishga tushgach, birgina Indoneziyaning o‘zidan qariyb besh million ziyoratchi kutyapmiz. Buning uchun hamma imkoniyatlar bor. Xalqaro sayyohlik va sayyohlik industriyasi juda katta daromad keltiryapti. Shuning uchun biz uni ham qadrlashimiz, ham rivojlantirishimiz kerak.

Prezidentimizning mehr bilan aytayotgan mulohazalarini tinglar ekanman, ko‘z oldimda men uchun qadrli yillar gavdalana boshladi. Eski tizimda Samarqandga xorijdan nuqul keksa sayyohlar kelardi. Ular ham Registondan boshqa obidalarga deyarli bormasdi.

Endi esa xorijlik sayyohlar bu zaminga oilasi bilan tashrif buyurmoqda. Samarqandga xalqaro anjumanga kelgan davlat rahbarlaridan birining intervyusida “O‘zbekistonga Xudoning nazari tushganligi rost. Sizlarga shunday fidoyi, aqlli, diplomat insonni rahbar qilib qo‘ygan. Bu odam qisqa vaqt ichida butun dunyo davlatlari rahbarlarining hamkorlikka nisbatan nuqtai nazarini ham o‘zgartirib yubordi. Mendagi hisob-kitoblarga ko‘ra, dunyodagi davlatlar rahbarlarining yarmidan ko‘pi O‘zbekistonga kelib-ketdi. Biz havas qilamiz bunday Prezidentga”, degan gaplari hali-hamon qalbimga g‘urur bag‘ishlaydi.

Paxta maydonlari 40 foiz qisqardi, hosil salmog‘i kamaymadi

Davlatimiz rahbarining qishloq xo‘jaligi faxriysi To‘xta Xudoynazarov bilan samimiy suhbati barchamiz uchun chinakam saboq bo‘ldi. Bugungi kunda kartoshkachilikda erishilayotgan yutuqlar aytib o‘tildi. Zero, endi O‘zbekiston dehqonlari aholini kartoshka bilan to‘la ta’minlayapti. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining paxtachilikda islohotlar davom ettirilishi kerakligi haqidagi fikrlari barchamizga manzur bo‘ldi.

— Bugun shaxsan men paxta masalasi bilan shug‘ullanganim yo‘q, — dedi Prezidentimiz. — Hokimlar ham shug‘ullanmaydi. Klaster o‘zi buyurtma beryapti, o‘zi terib olyapti, hosilni qayta ishlab, mahsulotini sotish bilan band. Nazarimda hali ham paxta maydonlarimiz mavjud korxonalar ehtiyojidan baland. G‘o‘za ekiladigan maydonlarni bosqichma-bosqich kamaytirib borish kerak, toki odamlar o‘zlari manfaat ko‘radigan ekinlarni eksin. Lekin bu ishda ham reja puxta bo‘lishi kerak. Biz daromad beradigan ekinlarni tanlashimiz, bozorini puxta o‘rganishimiz zarur.

Davlatimiz rahbari O‘zbekiston sharoitida yerdan uch-to‘rt martagacha hosil olish mumkinligini, buning uchun ne’matlarni xorijga tezda chiqarish yo‘lini topish kerakligini, ya’ni logistikani oqilona tashkil etish zarurligini ta’kidladi. Chunki bunda xarajatlar qisqaradi, odamlarning uzog‘i yaqin bo‘ladi. Mamlakatimiz yetakchisi Samarqandda barpo etilgan yangi ko‘prik ham ko‘p yillik orzusi ekanini yashirmadi.

...Paxta masalasi yillar davomida xalqimizning dardu iztirobiga aylandi. Besh million tonna paxta hosili yetishtirgan dehqonning kosasi oqarmadi. Aksincha, xomashyo quliga aylandi. Tashkilot rahbarlari o‘z kasbi yoki mutaxassisligini, idorasini uddalamaganligi uchun emas, balki jamoasini paxta yig‘im-terimiga safarbar qila olmagani uchun ishdan olinardi. Hatto o‘quv yurtlariga rahbar tayinlashda, eng avvalo, uning o‘z xodimlarini ana shu mavsumga jalb qila olish qobiliyatiga e’tibor qaratilardi. Ayanchlisi shundaki, bu sohadagi reja 99,99 foiz bo‘lganda ham hisobga o‘tmas, o‘sha xo‘jalik, tuman, viloyat “rejani bajarmagan” tamg‘asi bilan juda ko‘p rag‘batlardan quruq qolardi. Natijada rejani bajarib qo‘yish uchun mingta hiyla o‘ylab topilardi.

Shukrki, Prezidentimiz ana shu dardimizga malham bo‘ldi. Paxta masalasida davlat monopoliyasi bekor qilindi, ayollar, bolalar mehnatiga barham berildi.

G‘ururimizning boisi shuki, biz bu islohot boshlanganini his qilib, unga guvoh bo‘lib turibmiz. Misol uchun, Samarqand viloyatida keyingi 5-6 yil ichida paxta ekiladigan maydonlar 40 foiz qisqardi. Lekin hosildorlik oshgani hisobiga hosil salmog‘i kamaygan emas. Avval Samarqand shahar kunini paxta dalalarida nishonlar edik. Bu tadbir ham tushlikda tortiladigan oshdan, xonanda ijro etadigan 4-5 ta ashuladan nariga o‘tmasdi. Bugun esa biz davlatimiz rahbarini ana shu bayram bilan shahar chekkasida qad ko‘targan zamonaviy koshona ustida tabrikladik. Bunday g‘amxo‘rligi uchun minnatdorlik bildirdik.

Bugun shunchaki yashab bo‘lmaydi

Hammamiz ulkan islohotlar natijasini kundan kunga yaqqol sezib borayotgan yurtdoshlarimiz fikrini aytishga ulgurdik. Xalqaro shaxmat olimpiadasi g‘olibi Afro‘za Hamdamova Samarqanddagi olimpiada tarixiy ekani bilan faxrlanib, kelgusi safar o‘zbekistonlik xotin-qizlar jamoasi ham chempion bo‘lishga qodirligini ishonch bilan aytdi. Joylarda ochilayotgan shaxmat markazlari yoshlarning eng sevimli maskanlariga aylangani ham fikrimiz isbotidir.

Kasaba uyushmalari federatsiyasi viloyat kengashi raisi Suhrob Rafiqov esa Samarqand shahrini kengaytirish, infratuzilmasini yuksaltirish borasidagi ishlar odamlarning hayotga qarashlarini o‘zgartirayotganini alohida ta’kidladi. Ayniqsa, daraxt va gullarning yangi navlari aynan o‘z laboratoriyalarimiz, o‘z xo‘jaliklarimizda yetishtirilayotgani, qurilish sanoatimizda eksportchilar paydo bo‘lgani xursandlik bilan qayd etildi.

Shu o‘rinda yangi ko‘prik haqida to‘xtalsam: u M39 trassasi bilan bog‘langan. Ko‘prikning narigi tomoni — Oqdaryo bilan Qoradaryo o‘rtasida Shirin qo‘rg‘onchasi joylashgan. Ana shu maydon kelgusida viloyatning ma’muriy markazi bo‘ladi. Bu yerda kamida 180 ming aholi istiqomat qiladi, “aqlli” shahar bunyod etiladi. Hozirgacha Samarqand shahri hududiga kiruvchi bu maskan aholisi viloyat markaziga yigirma kilometrli aylanma yo‘l orqali qatnayotgan edi. Yana bir yangilik: bu yerdagi qurilish ishlariga xuddi Yangi Toshkentdagi kabi imtiyozlar joriy etiladi.

Mamlakatimiz yetakchisi davlatimiz, xalqimiz oldida turgan ulkan vazifalarni sanab o‘tdi. Har bir ishda loyihalarni puxta o‘ylash zarurligini alohida ta’kidladi. Misol uchun, tejamkor elektr stansiyasi o‘rnatyapmizmi, demak, odamlarni ham bu ne’matni tejashga o‘rgatishimiz lozim. Yangi mahsulotlar ishlab chiqaryapmizmi, uning logistikasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishimiz kerak. Yangi o‘quv yurtlari ochyapmizmi, unda albatta zamon talabiga mos mutaxassis tayyorlashimiz zarur. Bu davrda yo‘l-yo‘lakay, shunchaki yashab bo‘lmaydi. Xalqaro muhit doimo raqobatni talab qiladi. Biz o‘zimizni ham, xalqimizni ham ana shu raqobatga tayyorlay olishimiz shart.

Bu maskanda ma’rifat, ilm bor

Davlatimiz rahbarining yangidan barpo qilinayotgan Imom Moturidiy ziyoratgohidagi suhbatlari ham chinakam saboq bo‘ldi. Prezidentimiz tashabbusi bilan qurilayotgan ushbu manzil Chokardiza qabristonida yotgan to‘rt mingdan ziyod ulug‘ shayx ruhi sababli ham dilimizga o‘zgacha surur baxsh etdi.

— Bunday buyuk qadamjolarni obod qilish zamirida katta ma’naviyat, ma’rifat, ta’lim va ilm bor, — dedi Shavkat Mirziyoyev. — Odamlar bu yerga kelib nafaqat ziyorat qilsin, balki bilim olsin, o‘zligini anglasin!

Prezidentimiz Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy maqbaralarini ko‘zdan kechirar ekan, biz va farzandlarimiz mustahkam e’tiqodli, ma’rifatli, ilmli bo‘lishimiz zarurligiga alohida urg‘u berdi. Buning uchun ziyolilar allomalar merosini muntazam targ‘ib qilishi, odamlar esa bunday merosdan doimo bahramand bo‘lishi zarur. Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy majmuasidagi zamonaviy muzeylarning ta’sirchan kuchi xalqaro hamjamiyat tomonidan ham e’tirof etilmoqda. Bu maskanlarga tashrif buyurgan kishi qaytish chog‘ida ma’naviy jihatdan ancha o‘sgan bo‘lishi kerak.

Shuningdek, majmuani, atrofidagi infratuzilmani zamonga moslab qurish, ziyoratchilarga barcha qulayliklarni yaratish yuzasidan mutasaddilarga topshiriq berildi. Darvoqe, xorijdan keltirilgan yoki o‘zimizda ko‘paytirilgan maysa-chim suvni ko‘p talab qilarkan va uni juda tez bug‘lantirib yuborar ekan, shu sababli davlatimiz rahbari mutasaddilarga butasimon gul va o‘simliklarni ko‘paytirishni maslahat berdi. Bunda suvni tejash barobarida qishin-yozin yashillikni saqlab turish imkoni bor.

Garchi turli majlis va xalqaro anjumanlarda nutq, mulohaza, hatto Samarqandga tashrif buyurganida jamoatchilikka havola etgan fikrlaridan muntazam xabardor bo‘lsam-da, shiddatli zamonaning hozirgi holatida Prezidentimizdagi shijoat va g‘ayratni, o‘ktamlikni, eng muhimi, xalqaro holatga teran munosabatni ko‘rib g‘ururlandim. Qariyb bir soatlik muloqot davomida olgan ma’lumot va mulohazalar shuurimni boyitdi. Suhbat jarayonida davlatimiz rahbari ta’lim va ilm-fandagi islohotlarning mohiyatini ham juda ravshan tushuntirdi.

— Katta mashaqqat bilan bo‘lsa-da, davlat idoralari xodimlarini mahallaga tushirish choralarini ko‘ryapman va bu maqsadga muayyan darajada erishyapmiz. Ta’lim va ilm-fan vazirligining asosiy vazifasi davlat va jamoat tashkilotlarini hamda ota-onalarning e’tiborini maktabga qaratish va ularni ilm maskanlariga jalb qilishdir. To‘g‘ri, bilim — katta najot, lekin farzandlarimizda unga ehtiyoj uyg‘ota bilish jamiyatning muqaddas vazifasi sanaladi. Bugun erishgan natijalarimiz bunday ishlarni ham bajara olishimizga ishonch uyg‘otadi.

Xayrlashish chog‘ida Prezidentimiz aytgan so‘zlar bir soatlik suhbat davomida olgan zavqu shavqimiz, saboqlarimizning chinakam yakuni bo‘ldi:

— Biz juda katta yo‘lga chiqdik. Endi orqaga qaytish yo‘q. Chunki bu yo‘limiz to‘g‘ri ekanligini dunyo tan olyapti! Bu yo‘limiz to‘g‘ri ekanligini xalqimiz hayoti farovonligining kundan kunga oshib borayotganligi ko‘rsatib turibdi. Biz hamma sohada baravar qadam tashlashimiz kerak. Har qanday muammoni hal qilishga qodir ekanligimizga ishonch hosil qilishimiz lozim. Bu borada samarqandliklarga katta ishonch bildiraman!

Bugun shahar va qishloqlarimizni kezsangiz, islohotlar nafasi odamlar yuz-ko‘zida, kundalik turmush tarzida aks etayotganiga guvoh bo‘lasiz. Yaqindagina ishsizlikdan ezilib yurgan yigit bugun “yettilik” ko‘magida hovlisida ustaxona ochib, oshna-og‘aynisini ham ishli qilmoqda.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 29-oktabr, 224-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news



Farmon va ijro

MAHALLA QADR TOPAYOTGAN MAHALLAR

Sarg‘aygan shoxga bo‘yoq emas, suv kerak

Tong sahardan hovliga suv sepib, baraka kirishi uchun darvozani lang ochadigan momolarimiz duosida hamisha bir iltijo yangraydi: ilohim, xonadonimiz tinch bo‘lsin, hech kim kasal bo‘lmasin, bolalarimizning kuni birovga qolmasin. Asrlar osha xalqimizning bor quvonchiyu dil tubiga cho‘kkan og‘riqlari aynan shu mahalla tuprog‘ida, pastqam devorlar ortidagi hovlilarda kechgan. Zero, inson taqdiri va yurt farovonligi haqida so‘z ketsa, minbarlardagi pozitiv kayfiyatdagi hisobotlar emas, oddiy odamlar xonadonidagi kayfiyat, dasturxonidagi qut-baraka eng muhim o‘lchov bo‘lib chiqadi.

Keling, yaqin o‘tmishdagi manzaralarni bir yodga olaylik. Qo‘ltig‘iga bir to‘da qog‘oz qistirib, tuman markazida idorama idora sarson sang‘igan otalar, qaysi eshikni qoqishni bilmay kutgan onalar suvrati hali ko‘pchilikning xotirasidan o‘chgani yo‘q. O‘sha kezlarda oddiy odamlar o‘z muammosi bilan yolg‘iz qolar, qandaydir ma’lumotnoma yoki oddiy ko‘mak ilinjida oylab yugurishga majbur bo‘lardi. Eng alam qiladigani, muhr bosilgan qog‘ozlar idoradan idoraga ko‘chardiyu, asl muammo hal qilinmasdi.

Tajribali bog‘bon daraxt yaprog‘i sarg‘ayganini ko‘rsa, shoxiga yashil bo‘yoq surtib o‘tirmaydi, darhol ostiga suv quyadi, tagini yumshatib, quyosh tushishiga yo‘l ochadi. Jamiyatning asl ildizi, davlat atalmish chinorning tiriklik manbai esa, shubhasiz, mahalladir. Chunki birgina oilaga ertangi kunga ishonchsizlik soya solsa, mamlakat miqyosidagi eng yirik iqtisodiy raqamlar ham savol ostida qoladi. Shu bois, yangi davr islohotlarining yuragi bugun aynan mahallada urmoqda.

Prezidentimizning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmonni o‘qir ekansiz, uning zamirida inson qadrini qog‘ozdan real hayotga ko‘chiradigan siyosiy iroda mujassamligini sezasiz. Hujjatda mahallalardagi aholi muammolarini xonadonbay o‘rganish hamda ularning davlat organlari tomonidan hal etilishini onlayn nazoratga olish muhim vazifa o‘laroq aniq belgilab berilgan. Darhaqiqat, odamlarning muammolari bilan xonadonbay ishlash mexanizmi yillar davomida o‘zini oqlab kelmoqda.

Shu o‘rinda rasmiy tilda ifodalangan bu vazifa ortida qanday tirik taqdirlar, qanday insoniy kechinmalar yotganini bir tasavvur qilib ko‘raylik. Deylik, chekka qishloqdagi oddiygina uyda yashovchi Gulmira opa turmush o‘rtog‘idan erta ayrilib, uch farzandini yolg‘iz oyoqqa turg‘izishga urinardi. O‘zi qo‘ligul chevar bo‘lsa-da, zamonaviy tikuv mashinasi olishga qo‘li kaltalik qilar, lekin o‘zbekona andisha va g‘urur sabab mahalla idorasiga borib iltimos qilishga iymanardi. Xalqimiz tabiatida ana shunday sukutli xislat bor: hadeganda dardini dasturxon qilavermaydi, biroq mehrli qo‘llarni ich-ichidan kutib yashaydi.

Yangi tizimning insonparvarlik mohiyati shundaki, endi davlat fuqaroning idoraga iltimos qilib kelishini kutmayapti — o‘sha tortinchoq, tashvishini ichiga yutganlarning xonadoniga o‘zi kirib boryapti. “Mahalla yettiligi” aniq reja asosida har bir oila sharoitini birma-bir o‘rganish tartibiga o‘tgani Gulmira opaga o‘xshagan minglab yurtdoshlarimizning aytilmagan dardlarini yuzaga chiqardi. “Yettilik” vakillari bugun xonadonlar eshigini hisobot yig‘ib yuradigan tekshiruvchi qiyofasida emas, oilaning yaqin sirdoshi, og‘irini yengil qiladigan chinakam suyanch sifatida taqillatyapti.

“Yettilik” vakillari kirib kelganida, xonadon egasining ko‘nglida taqdirimizga davlatimiz befarq emas ekan-ku degan ishonch uyg‘onadi. Suhbat chog‘ida oydinlashgan har bir masala — xoh bandlik yoki salomatlik, xoh tomorqani sug‘orish tashvishi bo‘lsin, yondaftarga qayd etilgancha unutilib ketmayapti. O‘rganilgan muammolar shu joyning o‘zida “Raqamli mahalla” elektron platformasiga kiritilib, masala qonuniy va tizimli yechim sari yo‘l olmoqda.

Ilgari quyi bo‘g‘inda biror muammo yondaftarga tushirilsa, stol ustida sarg‘ayib yotishi, ba’zan esa tanish-bilishchilik yo loqaydlik kasriga qolib, butunlay e’tibordan chetda qolishi hech gap emasdi. Inson omili ustun bo‘lgan joyda goh subyektiv yondashuvlar, avval o‘zimga yaqin odamimning ishini bitiraqolay degan mayda manfaatlar uchrab turgani ham, achchiq bo‘lsa-da, haqiqat edi. Endi “Raqamli mahalla” platformasiga kiritilgan ma’lumot hech kimning kayfiyati yo shaxsiy xohish-istagiga bo‘ysunmaydigan shaffof makonga tushadi.

Platformaga kiritilgan muammolar sun’iy intellekt yordamida tegishliligi bo‘yicha vazirlik va idoralarga avtomatik taqsimlanadi. Sun’iy intellektda esa yuzxotirchilik, sansalorlik, mas’uliyatni boshqa tashkilot bo‘yniga ag‘darish yoki murojaatni ko‘rmaslikka olish kabi qusurlar bo‘lmaydi. Algoritm har bir masalaning mohiyatini xatosiz tahlil qilib, o‘sha zahoti mas’ul idoraning ish stoliga qo‘yadi. Natijada oddiy inson dardi bilan davlat imkoniyati o‘rtasidagi sun’iy to‘siqlar o‘z-o‘zidan barham topadi.

Yana bir hayotiy manzarani ko‘z oldimizga keltiraylik: qishloqda yashaydigan Sodiq boboning ko‘chasidagi suvi quvuri eskirgan yoki qaysidir nabirasi oliygohda o‘qish uchun imtiyozli kredit olishning hadisini tushunmay sarson bo‘lib yuribdi. “Mahalla yettiligi” bu holatni o‘rganib, platformaga kiritgan paytdayoq tegishli vazirlik yoki idorada masala ko‘rinadi. Davlat organlari aholi muammolarini hal etishga to‘g‘ridan to‘g‘ri jalb qilingani bois, mahalladagi oddiy xonadon bilan respublika darajasidagi yirik idora o‘rtasida jonli va tez aloqa o‘rnatiladi.

Hech bir mas’ul “bu masala bizning vakolatimizga kirmaydi” degan eskicha bahona bilan javobgarlikdan bo‘yin tovlay olmaydi. Negaki endi aholi muammolarini hal etishni shu zahoti tegishli idoraga yuklaydigan va natijasini aniq muddatda so‘rov qiladigan tizim mavjud. Eng muhimi, masala uzil-kesil yechimini topmaguncha, ijrosi nazoratdan tushmaydi. Sodda aytganda, Sodiq boboning ko‘chasida suv ilgarigidek oqmaguncha yoki nabirasining ta’lim krediti hal qilib berilmaguncha, elektron tizim mutasaddilarga tinchlik bermaydi.

Ushbu islohotning eng ta’sirchan, jamiyat ruhiyatini o‘zgartiradigan nuqtasi esa rahbarlar faoliyatiga beriladigan baho bilan chambarchas bog‘liq. Farmonda aholining aniqlangan muammolari qanchalik ijobiy hal etilayotgani vazirlik va idoralar, xususan, ularning rahbariyati faoliyatini baholaydigan asosiy mezonlardan biri etib belgilangan. Endi shinamgina kabinetda o‘tirgan rahbarning qanchalik samarali ishlayotganini uning balandparvoz ma’ruzalari emas, mahalladagi oddiy odamning roziligi ko‘rsatib beryapti.

O‘ylab ko‘ring-a, Gulmira opa tikuv mashinasi ololmayotgani yoki Sodiq boboning ko‘chasidagi nosozlik amaldorning lavozimga qanchalik loyiqligini o‘lchaydigan taroziga aylanib bormoqda. Bordiyu fuqaro muammosi vaqtida yechim topmasa, soha rahbarlarining yillik faoliyatiga ham ijobiy baho qo‘yilmaydi. Ana shunday qat’iy talabchanlik davlat xizmatchisining dunyoqarashini o‘zgartiradi, uni quruq qog‘ozbozlikdan voz kechib, xalq ichiga kirishga, har bir raqam ortida tirik inson taqdiri turganini yurakdan his etishga undaydi.

Bugun shahar va qishloqlarimizni kezsangiz, islohotlar nafasi odamlar yuz-ko‘zida, kundalik turmush tarzida aks etayotganiga guvoh bo‘lasiz. Yaqindagina ishsizlikdan ezilib yurgan yigit bugun “yettilik” ko‘magida hovlisida ustaxona ochib, oshna-og‘aynisini ham ishli qilmoqda. Kecha farzandini davolatish uchun qayerdan najot topishni bilmay yurganlar bugun “Raqamli mahalla” orqali tezkor yo‘llanma olib, davlatning g‘amxo‘rligini yuragida his etmoqda.

Xo‘sh, inson qachon jamiyatni yuksaltirishga chin dildan bel bog‘laydi? Qachonki ko‘ngli xotirjam bo‘lsa, ro‘zg‘oridagi kemtiklar to‘lsa va ortida tog‘dek suyanchi — adolatli davlat turganini har lahza his qilib yashasa! Davlatimiz tomonidan mahallaga qaratilayotgan e’tibor zamirida ham aynan shu hayotiy haqiqat mujassam. Zero, yorug‘ kelajak har bir xonadon obodligi va odamlarning bugungi hayotidan rozilik tuyg‘usidan bunyod bo‘ladi.

Bugungi o‘zbek mahallasi oddiy qo‘ni-qo‘shnichilik maskanigina emas, yangilanayotgan jamiyat yuragi, farovon kelajak bunyod etilayotgan manzilga aylanmoqda. Tashkilot va idoralarning kuch-salohiyati yagona nuqtaga — mahalladagi oddiy odamlar baxtiga yo‘naltirilgani yurtimizda yangi yuksalish pallasini boshlab berdi. Ostonadan boshlangan bu adolat va e’tibor esa ertangi yorug‘ kunlarimizning eng ishonchli kafolatidir.

Jonibek ALIJONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Munosabat

HALOL MEHNATNING NONI SHIRIN

Shu kunlarda xayolimga kelmagan quvonchli voqelik bo‘ldi. Bu shunchalik tasavvur qilib bo‘lmaski, axir oddiy bir bog‘bon yigit yuksak davlat mukofoti olishni qayerdan ham xayoliga keltirsin?! Yangi O‘zbekistonimizda aholining tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, samarali mehnatni munosib rag‘batlantirishga qaratilayotgan alohida e’tibor natijasida men ana shunday yuksak e’tirofga, ishonchga sazovor bo‘ldim. Buni, eng avvalo, Prezidentimizning xalqparvarligidan deb bilaman.



Abdumannon XUDOYBERDIYEV,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan qishloq xo‘jaligi xodimi

Sohibkor mahallamiz nafaqat Qamashi tumanida, balki Qashqadaryoda birinchilardan bo‘lib limonchilikni boshlagan hududlardan biri. Hozir ham qishlog‘imizdagi deyarli barcha xonadon hovlisida limon ekilgan. Asosiy drayverimiz ham shu yo‘nalish.

O‘ttiz sotix tomorqam bor. Unda, asosan, limon ko‘chatlari yetishtirishni yo‘lga qo‘yganman. Har yili 15-20 ming tup nihol parvarishlab, sotuvga chiqaraman. Buning ortidan yiliga 150-200 million so‘m foyda olamiz. Yer hajmi, voha sharoitini hisobga olganda, bu yaxshigina daromad. Shuning uchun bu ish bilan oilaviy bandmiz.

Yangi issiqxona qurayotganlar ko‘pincha maslahat, ba’zilari yordam so‘raydi. Ular bilan tajribamni bo‘lishaman, zarur bo‘lsa, issiqxonasiga borib, ko‘chatlarini ekib beraman. Axir asosiy ishim bog‘dorchilik, uning rivojidan barcha kabi o‘zim ham manfaatdorman.

Shu yil boshida Chim mahallasida 4 gektarli issiqxona qurilishi boshlangani haqida eshitgandim. Bir oz vaqt o‘tib, menga shu joyga limon ekib berishimni aytishdi. Kelishuvga asosan, o‘zim yetishtirgan to‘rt ming tup ko‘chat ekdik. Mas’ullar nihollarni parvarishlashda ham yordam so‘radi. Mahalladagi yoshlarga bo‘lib berilgach, ularga yordamlashyapman.

Prezidentimiz Qashqadaryoga tashrifi chog‘ida Chim mahallasidagi ishlar, jumladan, issiqxona faoliyatini ham ko‘zdan kechirdi. Shu jarayonda mendan limonchilik haqida so‘radi. Samimiy suhbatimiz davomida mehnatimni e’tirof etganidan juda xursand bo‘ldim. Davlatimiz rahbari shu yerning o‘zida albatta mehnatimni munosib baholash lozimligini aytgandi. Ertasi kuni yig‘ilishda “O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan qishloq xo‘jaligi xodimi” faxriy unvoni bilan taqdirladi.

Ishonasizmi, bunday bo‘lishini hech kutmagandim. Hayajondan shoshib qoldim. Ko‘zimdan sevinch yoshi to‘xtamasdi. Oddiy bir bog‘bonning mehnatini shaxsan Prezident e’tiborga olib, yuksak mukofotlashi boshqa yurtda bo‘lmasa kerak. Buning uchun davlatimiz rahbariga cheksiz minnatdorligimni bildiraman. Mehnatga munosib rag‘bat yangi marralar sari undashi aniq. Endi yanada ko‘proq mehnat qilib, e’tirofga munosib bo‘lish yo‘lida izlanishda davom etaman.

JAMOAT TRANSPORTIDAGI O‘ZGARISHLAR – xalq roziligi va iqtisodiy barqarorlik kafolati

Keyingi yillarda yurtimizda aholiga qulay, xavfsiz va ekologik toza jamoat transporti xizmatining sifatini oshirish uchun keng ko‘lamli ishlar bajarilyapti. Xususan, oxirgi 3 yilda poytaxtimiz va viloyat markazlariga 2650 ta zamonaviy elektrobus va avtobus olib kelingan. Bunday islohotlar aholi kayfiyatiga ijobiy ta’sir qilib, hududning iqtisodiy rivojiga munosib hissa qo‘shadi.

Tahlil va taqqos



— Bundan 25 yil oldin shaharda bor-yo‘g‘i bir yo‘nalish bo‘ylab avtobus qatnardi. Uning kelishini soatlab kutardik. O‘n yil oldin atigi uch yo‘nalish bo‘yicha avtobuslar qatnovi yo‘lga qo‘yildi. Bugun bekatda tursangiz, avtobuslar qatorlashib keladi. Yo‘nalishlar ham ancha ko‘paydi. Bekatlar shinam, qulay, barcha sharoitga ega. Avtobuslar ham zamonaviy. Rohat tuyasiz, — deydi mehnat faxriysi Shohida Aripova.

2025-yili Surxondaryo viloyati transport boshqarmasi hamda “Termiztransportxizmat” MCHJ hamkorligida Xitoyda ishlab chiqarilgan 35 ta zamonaviy avtobus olib kelindi. Bu transportlar Termiz shahridagi 3-, 4- va 7-yo‘nalishlarda brutto-shartnoma asosida xizmat ko‘rsata boshladi. Shuningdek, jamoat transporti tizimida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish va xizmatlar sifatini yanada oshirish maqsadida ayni paytda shahardagi 3 ta yo‘nalish ochiq elektron “e-tender” platformasiga joylashtirilgan.

Tadbirkorlar zamonaviy avtobuslar sotib olib, shahar yo‘nalishlariga qo‘yishga jalb etilmoqda. Xususan, “Bes Logistictrans Termez” MCHJ hamda “Universal elektrotexnik servis” MCHJ tomonidan xarid qilingan “ZHONGTONG” rusumli zamonaviy avtobuslar shahar yo‘nalishlarida yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatayotir.

— Termiz shahrida yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatayotgan zamonaviy avtobuslar soni 80 tani tashkil etadi. Shaharda brutto-shartnoma asosida faoliyat yurituvchi 6 ta yo‘nalish mavjud. Ular shaharning barcha asosiy ko‘chalari va hududini qamrab oladi. Bundan tashqari, mahalliy tadbirkorlar tomonidan 6 ta mikroavtobus olib kelinib, viloyatning turizm yo‘nalishida yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatmoqda, — deydi Surxondaryo viloyati transport boshqarmasi boshlig‘i Umid Nazarov. — Kelgusida jamoat transporti parkini yangilash, yangi zamonaviy avtobuslarni jalb etish, mavjud yo‘nalishlarda xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish kabi ishlar izchil davom ettiriladi.

Jamoat transporti xizmati sifatini oshirish faqat zamonaviy avtobuslarga bog‘liq emas. Ularga mos yo‘l infratuzilmasi ham zarur. Hozir Surxondaryo viloyatida 776 ta avtobus bekati mavjud. 2025-yilda 45 ta bekatda ta’mirlash va rekonstruksiya ishlari bajarildi. Jamoat transportining erkin harakatlanishini ta’minlash maqsadida avtobuslar uchun 6 kilometrdan iborat alohida yo‘lak barpo etildi. Shu tariqa Termiz shahrining Islom Karimov, Barkamol avlod, At-Termiziy, Ibn Sino va Alisher Navoiy ko‘chalarida avtobus yo‘laklari uzunligi 17 kilometrga yetdi. Shahar ko‘chalari bo‘ylab harakatlanayotgan avtobuslarning belgilangan bekatlarda to‘xtashi, o‘z yo‘nalishlaridan chiqib ketmasligini nazorat qilish maqsadida dispetcherlik markazi tashkil etilgan. U orqali har bir avtobusda qancha yo‘lovchi harakatlanayotgani, yo‘l haqi to‘lanishi real vaqt rejimida muntazam kuzatib boriladi.

Surxondaryo viloyatida 438 kilometr uzunlikdagi temir yo‘l mavjud. Bu yuk va yo‘lovchi tashishda katta imkoniyat yaratadi. Jamoat transporti tizimining muhim tarmog‘i bo‘lgan temir yo‘llar ham zamon talabiga mos ravishda izchil rivojlanmoqda. 2019-yilda Termiz temir yo‘l vokzali qaytadan rekonstruksiya qilinib, yo‘lovchilar uchun zarur sharoit yaratildi. Hozir bu yerdan shaharlararo yo‘nalishda bir kunda 3 ta yo‘nalish bo‘yicha 5 ta reys amalga oshirilmoqda. Xususan, “Termiz — Toshkent — Termiz”, “Termiz — Andijon — Termiz” yo‘nalishlarida poyezd qatnovi yo‘lga qo‘yildi.

Termiz xalqaro aeroportida ham yangilanishlarni ko‘rish mumkin. 2019-yili aerovokzal to‘liq qayta rekonstruksiya qilindi. Kutish zallari, ona va bola xonalari, tibbiy nazoratdan o‘tkazish joylari, umuman xizmat ko‘rsatish tizimi tubdan o‘zgardi.

— 2022-2024-yillarda Termiz xalqaro aeroportidagi uchish-qo‘nish yo‘laklari ta’mirlanib, istalgan turdagi havo kemalarini qabul qilish imkoni paydo bo‘ldi, — deydi Termiz xalqaro aeroporti direktori o‘rinbosari Odil Valiyev. — Soatiga 400 yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatish quvvatiga ega terminal ishga tushirildi. Hozir aeroportimizdan 3 mamlakatning 5 ta shahriga, shuningdek, mahalliy parvozlar yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, haftasiga 44 ta reys mavjud. O‘tgan yilda 350 ming yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatilgan bo‘lsa, joriy yilda bu raqamni 455 mingga yetkazish belgilangan.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Kasbiy ta’limi rivojlangan davlatlar tajribasi ko‘rsatadiki, ularning yutug‘i uskuna va binoda emas, tashkiliy mexanizmda. Bu mamlakatlarda kasbga yo‘naltirish maktab dasturining majburiy qismi hisoblanadi: o‘quvchi 7-8-sinflardayoq bir necha kasb sohasida haftalab amaliy sinovdan o‘tadi, natijalari maxsus hujjatda qayd etilib, keyingi tanlov uchun asos bo‘ladi.





Dolzarb mavzu

O‘n besh yoshli bolaning kasb haqidagi qarori ko‘pincha bir suhbat, bir maslahat yoki do‘stining tanlovi bilan belgilanadi. Bu qarorning bahosi esa o‘n yillar davomida to‘lanadi: o‘ziga mos bo‘lmagan yo‘nalishda o‘qigan yosh, uning ta’limiga sarflangan oila va davlat mablag‘i, kerakli mutaxassisni topa olmagan korxona. “Kasblar shaharchasi” aynan shu zanjirning eng boshida — bola hali qaror qabul qilmasdan oldin ishlaydigan, natijaga yo‘naltirilgan mexanizmdir.

“KASBLAR SHAHARCHASI” — INSON KAPITALINING YANGI POYDEVORI

tajriba, saboqlar va takliflar



Hayot QODIROV,
Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti direktori

21-oktabr kuni Qashqadaryo ilg‘or kasbiy mahorat texnikumida Germaniyaga amaliyotga otlanayotgan yoshlar bilan suhbatda Prezidentimiz kasbli inson hech qachon kam bo‘lmasligini, bilim va hunarni puxta egallagan yosh qayerda bo‘lmasin o‘z o‘rnini topishini ta’kidladi. Shu suhbatda maktab davridanoq kasb va til o‘rgatish zarurligi ham alohida qayd etildi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil fevraldagi tegishli farmoni bilan 2026/2027-o‘quv yilidan yetti hududda “Kasblar shaharchasi” tashkil etish belgilangan edi. 17-avgustda Prezidentimiz Urganchdagi ilk shaharcha bilan tanishdi va ertasi kuni bu tajribani mamlakatimizning barcha hududlarida yo‘lga qo‘yish vazifasini qo‘ydi. Shunday qilib, yetti viloyatda boshlangan tashabbus umummilliy tizimga aylanmoqda. Endi uni har bir viloyatda bir xil yuqori sifatda ishlaydigan tizimga aylantirish vaqti keldi. Buning uchun esa, avvalo, shaharcha nima uchun yaratilganini aniq tushunib olish zarur.

Shaharcha nima uchun yaratilgan?

“Kasblar shaharchasi”ning asosiy maqsadini bir jumlada bunday ifodalash mumkin: har bir o‘quvchiga kasbni qo‘li bilan sinab ko‘rish orqali qiziqishi va qobiliyatini anglash, shu asosda o‘ziga ham, mehnat bozoriga ham mos kasbni ongli ravishda tanlash imkoniyatini berish. Boshqacha aytganda, shaharcha kasb o‘rgatmaydi — u kasbni tanlashni o‘rgatadi. Kasbni texnikum o‘rgatadi, shaharcha esa bolani to‘g‘ri texnikumga, to‘g‘ri yo‘nalishga olib keladi.

Bu maqsad uch darajada namoyon bo‘ladi. **Bola uchun — o‘zini anglash.** O‘smir o‘zi haqida ko‘p narsani bilmaydi: qo‘li nozik ishga moyilmi yoki kuchli harakatgami, texnika uni qiziqtiradimi yoki odamlar bilan ishlash, u qayerda zerikadi va qayerda vaqtni unutadi? Bu savollarga test ham, suhbat ham to‘liq javob bermaydi. Javobni faqat tajriba beradi: payvand apparatining simulyatorida, santexnika stendida, oshxonada, dron pultida. Urganch va Qarshidagi shaharchalarning “O‘zing yasab ko‘r” tamoyili aynan shunga qaratilgan.

Oila uchun — asosli qaror. Bizda kasb tanlovini ko‘pincha ota-ona hal qiladi va bunda kasbning obro‘si, diplom nufuzi hal qiluvchi bo‘ladi. Shaharcha ota-onaga farzandi haqida aniq kuzatuv va dalilga asoslangan tavsiya beradi. Bu “men shunday deb o‘ylayman” emas, “farzandingiz shu sohada o‘zini shunday ko‘rsatdi”, degan suhbatdir.

Davlat va iqtisodiyot uchun — kadrlar oqimini boshqarish. Shaharchadagi kasblar tasodifan tanlanmaydi: Xorazmda transport va logistika, sanoat va qurilish, servis, qishloq xo‘jaligi va “yashil” energetika, Qashqadaryoda esa robototexnika, dronlar, elektromobillarga xizmat ko‘rsatish, zootexnika va agronomiya. Bu har bir viloyat iqtisodiyotining ertangi ehtiyoji. Shunday qilib, shaharcha bolaning shaxsiy qiziqishini hududning real mehnat bozori bilan uchrashtiradigan joyga aylanadi.

Shaharcha texnikumning qo‘shimcha ustaxonasi emas, maktab to‘garagi emas, mehmonlarga ko‘rsatiladigan ko‘rgazma zali ham emas. Uning natijasi tashriflar soni emas, balki o‘z tanlovini anglab, asoslab qabul qilgan o‘quvchilar sonidir.

Bir martalik tashrif — taassurot, tizimli jarayon — qaror

Kasbiy rivojlanish nazariyasi uzoq yillik tadqiqotlarga tayanadi va shaharcha qanday ishlashi kerakligini aniq ko‘rsatadi.

Amerikalik psixolog Donald Super insonning kasbiy rivojini bosqichlar sifatida tasvirlagan. Uning nazariyasiga ko‘ra, o‘smirlik davri — izlanish bosqichi: bu davrda inson turli faoliyatni sinab ko‘radi va o‘zi haqidagi tasavvurini kasb olami bilan solishtiradi. Demak, 7-9-sinflar kasbga yo‘naltirish uchun eng qulay davr bo‘lib, kechikish boy berilgan imkoniyatdir.

Jon Hollandning nazariyasi esa insonning shaxsiy xususiyatlari bilan kasb muhiti o‘rtasidagi muvofiqlik uning mehnatdan qoniqishi va bu kasbda barqaror qolishini belgilashini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, to‘g‘ri tanlangan kasb nafaqat shaxsiy baxt, balki kadrlar qo‘nimsizligi kamayishi, malakali mutaxassisning sohada uzoq ishlashidir.

Zamonaviy tadqiqotchilar, jumladan, Mark Savikas va Andreas Xirshi yana bir muhim tushunchani ilgari surgan — kasbiy moslanuvchanlik. Bu o‘z kelajagiga qiziqish, qarorni o‘z qo‘liga olish, yangi imkoniyatlarga ochiqlik va o‘z kuchiga ishonch. Tez o‘zgarayotgan mehnat bozorida bir marta to‘g‘ri kasb tanlashdan ko‘ra, umr bo‘yi to‘g‘ri tanlay olish ko‘nikmasi muhimroq.



Bu nazariyalarning shaharcha uchun amaliy xulosasi bitta: kasbga yo‘naltirish tadbir emas, jarayon bo‘lishi kerak. Bir kunlik tashrif bolada yorqin taassurot qoldiradi, lekin qaror shakllantirmaydi. Qaror esa izchil ketma-ketlikda shakllanadi: kasblar olami bilan tanishish, o‘z qiziqishini aniqlash, bir necha kasbni amalda sinab ko‘rish, tanlovni toraytirish, oila bilan maslahatlashish va nihoyat, ongli qaror. Shaharcha shu jarayonning markaziy bo‘g‘ini bo‘lib, maktab undan oldingi va keyingi bosqichlarni ta’minlashi lozim.

Ikki tizim o‘rtasidagi ko‘prik

Shaharcha o‘z maqsadiga erishishi uchun hal qilinishi lozim bo‘lgan eng chuqur masala — maktab va kasbiy ta’lim o‘rtasidagi uzilish. Bugun ular turli idoralar tasarrufida, turli o‘quv rejalari, turli hisobotlar va turli mezonlar asosida ishlaydi. Maktab o‘z vazifasini bitiruvchiga attestat berish bilan tugagan deb hisoblaydi, texnikum esa o‘quvchini 9 yoki 11-sinfdan keyin “tayyor holda” qabul qiladi. O‘quvchining kasb tanlovi esa aynan shu ikki tizim oralig‘ida, hech kimning mas’uliyatida bo‘lmagan “bo‘shliq”da hal bo‘ladi.



“Kasblar shaharchasi”ning ilg‘or kasbiy mahorat texnikumi hududida joylashgani tasodif emas. Bu — maktab o‘quvchisi kasbiy ta’lim muhitiga ilk bor qadam qo‘yadigan nuqta. Lekin shaharcha haqiqiy ko‘prikka aylanishi uchun integratsiya besh yo‘nalishda yo‘lga qo‘yilishi zarur.

Mazmun integratsiyasi. Maktabdagi texnologiya fanining 7-9-sinflardagi bir qismi shaharcha va texnikum ustaxonalarida, texnikum ustalari ishtirokida o‘tkazilishi mumkin. Shunda bu fan nazariy mashg‘ulotdan real kasbiy sinovga aylanadi. 10-11-sinflar uchun esa texnikum bilan hamkorlikda tanlov asosidagi kasbiy modullar joriy etilib, ulardan olingan natijalar texnikumga kirganda hisobga olinishi o‘qish muddatini qisqartirishi kerak.

Kadrlar integratsiyasi. Texnikum ustalari maktabda, maktab texnologiya o‘qituvchilari esa texnikum ustaxonalarida dars berishi, ularning qo‘shma metodik birlashmalari tuzilishi lozim. Maktab o‘qituvchisi zamonaviy uskunani, texnikum ustasi esa o‘smir bilan ishlash metodikasini bir-biridan o‘rganadi.

Resurslar integratsiyasi. Har bir maktab tuman yoki viloyatdagi muayyan bazaviy texnikumga biriktirilishi, texnikumning ustaxona va laboratoriyalari esa maktab o‘quvchilari uchun belgilangan jadval asosida ochiq bo‘lishi kerak. Qashqadaryo texnikumi allaqachon boshqa muassasalarning 2800 o‘quvchisi uchun amaliy baza vazifasini bajarmoqda — shu tamoyilni maktablarga ham kengaytirish mumkin.

Ma’lumotlar integratsiyasi. O‘quvchining maktabdagi o‘zlashtirishi, shaharchadagi sinovlari va mentorning tavsiyalari yagona raqamli profilda to‘planib, texnikumga uzatilishi kerak. Shunda texnikum o‘quvchini “noldan” emas, kuchli jihatlari va qiziqishlarini bilgan holda qabul qiladi.

Mas’uliyat integratsiyasi. Eng muhimi — umumiy natija uchun umumiy javobgarlik. Maktab faqat bitiruvchilar soni emas, ulardan qanchasi asoslangan kasbiy tanlov qilgani uchun, texnikum esa faqat qabul rejasi emas, qabul qilinganlardan qanchasi birinchi kursda o‘qishni tashlamagani uchun mas’ul bo‘lishi kerak. Viloyat darajasida hokimlik, maktab ta’limi, kasbiy ta’lim va ish beruvchilar vakillaridan iborat muvofiqlashtiruvchi kengash bu jarayonni boshqarishi maqsadga muvofiq.

Til o‘rgatish ham shu integratsiyaning bir qismi. Qashqadaryoda 500 yoshni nemis tiliga o‘qitib, Germaniyaga amaliyotga yuborish rejasi ko‘rsatadiki, kasb va til bir-biridan ajralmas. Maktabdagi chet til ta’limi kasbiy yo‘nalishga bog‘lansa, yosh texnikumga nafaqat kasbga, balki xalqaro mehnat bozoriga ham tayyor holda keladi.

Iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy adolat vositasi

“Kasblar shaharchasi”ni faqat ta’lim loyihasi sifatida baholash uning ahamiyatini toraytiradi. Aslida, u iqtisodiy siyosatning ham, ijtimoiy siyosatning ham muhim vositasidir.

Iqtisodiy jihat. Hududlardagi keng ko‘lamli investitsiya dasturlari yangi korxonalar, texnologiyalar va ish o‘rinlarini olib kelmoqda. Xorazmga qisqa davrda 4 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilinib, 10 mingta yangi quvvat ishga tushirildi. Qashqadaryoda 21-oktabrda umumiy qiymati 6 milliard dollardan ortiq 161 ta loyihadan 69 tasi ishga tushirildi, 92 tasining qurilishi boshlandi. Ammo davlatimiz rahbari Xorazmdagi muloqotda ta’kidlaganidek, har bir loyihaning samarasi faqat texnologiyaga emas, uni ishlata oladigan malakali kadrlarga bog‘liq. Malakali ishchi yetishmasa, investor mutaxassisni chetdan olib kelishga yoki xodimni ish joyida uzoq va qimmat qayta o‘qitishga majbur bo‘ladi. Shaharcha esa viloyat iqtisodiyotining ertangi ehtiyojini bugungi o‘quvchining tanlovi bilan bog‘laydi. Boshqacha aytganda, u investitsiya va inson kapitali o‘rtasidagi uzilishni maktab davridayoq bartaraf etadi.

Buning ortida kengroq makroiqtisodiy mantiq bor. To‘g‘ri kasb tanlagan yosh o‘qishni tashlamaydi, yo‘nalishini almashtirmaydi, bitirgach, o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishlaydi. Bu davlat va oila ta’limga sarflagan mablag‘ samarali ishlashini, mehnat unumdorligi oshishini, yoshlar ishsizligi va norasmiy bandlik qisqarishini anglatadi. Kasb — kambag‘allikdan chiqishning eng ishonchli va barqaror yo‘li. Shu ma’noda, shaharchaga yo‘naltirilgan har bir so‘m kambag‘allikni qisqartirishga kiritilgan uzoq muddatli sarmoyadir.

Ijtimoiy jihat. Shahar oilasida o‘sgan bola kasblar haqida ko‘proq ma’lumotga ega: atrofida turli soha vakillari, to‘garaklar, o‘quv markazlari bor. Olis tuman yoki qishloq bolasining kasb haqidagi tasavvuri esa ko‘pincha yaqin atrofidagi bir necha kasb bilan cheklanadi. Natijada tanlov imkoniyati bola qobiliyatiga emas, qayerda tug‘ilganiga bog‘liq bo‘lib qoladi.

“Kasblar shaharchasi” bu tengsizlikni yumshatishga xizmat qilishi kerak. Qishloq maktabi o‘quvchisi ham xuddi shahar bolasidek robototexnika, “yashil” energetika yoki zamonaviy agrotexnologiyani o‘z qo‘li bilan sinab ko‘rish, qobiliyatini kashf etish huquqiga ega. Shuning uchun shaharcha qamrovini baholashda, eng avvalo, tuman va qishloq maktablari o‘quvchilari ulushiga e’tibor qaratish lozim. Ijtimoiy adolat shunda namoyon bo‘ladiki, har bir bolaning kelajagi manziliga emas, salohiyatiga qarab belgilanadi.

Xorij tajribasining asl sabog‘i

Kasbiy ta’limi rivojlangan davlatlar tajribasi ko‘rsatadiki, ularning yutug‘i uskuna va binoda emas, tashkiliy mexanizmda. Bu mamlakatlarda kasbga yo‘naltirish maktab dasturining majburiy qismi hisoblanadi: o‘quvchi 7-8-sinflardayoq bir necha kasb sohasida haftalab amaliy sinovdan o‘tadi, natijalari maxsus hujjatda qayd etilib, keyingi tanlov uchun asos bo‘ladi. O‘quv dasturlari ish beruvchi bilan birga tuziladi, kasbiy ta’lim esa oliy ta’limga yo‘lni yopmaydi. Shuning uchun u yerda kasbiy yo‘l “boshi berk ko‘cha” emas, nufuzli tanlov sifatida qabul qilinadi.

Bu tajribadan bizning shaharchalar uchun to‘rt xulosa chiqadi: kasbga yo‘naltirish maktab dasturiga kiritilgan bo‘lishi; o‘quvchining natijalari hujjatlashtirilib, keyingi bosqichga uzatilishi; shaharcha real ish beruvchi bilan bog‘lanishi; kasbiy yo‘l esa oliy ta’limga eshikni yopmasligi kerak. Qashqadaryodagi 32 ta yirik tashkilot bilan shartnoma va yoshlarni Germaniyaga amaliyotga yuborish rejasi uchinchi shartning yaxshi boshlanishi. Qolgan uchtasini esa milliy darajada hal qilish lozim.

Yetti qadam

Yuqoridagi tahlil asosida “Kasblar shaharchasi” modelini mamlakat miqyosida samarali joriy etish uchun quyidagi choralarni taklif etamiz.

Birinchi qadam — shaharchani maktab dasturiga kiritish. Kasbga yo‘naltirish ixtiyoriy tadbir emas, har bir o‘quvchi uchun majburiy yo‘l bo‘lishi kerak. Uning mantiqiy tuzilmasi quyidagicha: 7-sinfda qiziqish va qobiliyatni aniqlashga qaratilgan diagnostika va shaharchaga birinchi tanishuv tashrifi; 8-sinfda shaharchada kamida uchta kasb sohasini qamrab olgan, bir haftadan kam bo‘lmagan amaliy sinov; 9-sinfda tanlangan yo‘nalish bo‘yicha hamkor korxonada qisqa muddatli amaliyot va yakuniy tavsiya. Buning uchun maktab o‘quv rejasida alohida soatlar ajratilishi lozim.

Ikkinchi qadam — “Kasbiy tanlov pasporti”. Har bir o‘quvchining shaharchadagi sinovlari, mentorning kuzatuvlari va tavsiyalari yagona raqamli profilda saqlanishi kerak. Bu hujjat o‘quvchi, ota-ona, maktab va texnikum uchun ochiq bo‘ladi. Shunda texnikumga qabul paytida ham yoshning tasodifiy emas, sinalgan va asoslangan tanlovi ko‘rinadi.

Uchinchi qadam — kasbiy mentor lavozimi va uning tayyorlov standarti. Shaharchalarda kasb ustasi va pedagog-psixolog ko‘nikmalarini birlashtirgan “kasbiy mentor” lavozimini joriy etish, ular uchun maxsus malaka oshirish dasturi va sertifikatlash tizimini yaratish zarur. Maktablarda faoliyat yuritayotgan kasbga yo‘naltirish maslahatchilari ham shaharcha amaliyotida tayyorlanishi maqsadga muvofiq.

To‘rtinchi qadam — har bir bolaga yetib borish. Uzoq tumanlar uchun transport bilan ta’minlangan tashriflar jadvali, tuman markazlariga chiqadigan ko‘chma kasb modullari va virtual simulyatorlar orqali oldindan tayyorgarlik tizimini yo‘lga qo‘yish lozim. Shaharcha qamrovi viloyatdagi barcha 8-sinf o‘quvchilari ulushi bilan o‘lchanishi kerak.

Beshinchi qadam — barqaror moliyalashtirish. Kapital qurilish bilan birga shaharchaning yillik faoliyati uchun har bir o‘quvchiga hisoblangan moliyalashtirish normativini belgilash, ish beruvchilarni esa kasb modullarini jihozlash va yangilashga jalb qilish taklif etiladi. Modulni qo‘llab-quvvatlagan korxona evaziga o‘zi uchun kadrlarni maqsadli tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Oltinchi qadam — to‘g‘ri mezonlar bilan o‘lchash. Shaharcha samaradorligi tashriflar soni bilan emas, quyidagi ko‘rsatkichlar bilan baholanishi lozim: asoslangan kasbiy tanlovni shakllantirgan 9-sinf o‘quvchilari ulushi; shaharchada sinalgan yo‘nalish bo‘yicha texnikumga kirganlar ulushi; texnikumning birinchi kursida o‘qishni tashlash yoki yo‘nalishni o‘zgartirish darajasi; bitiruvchilarning bir yildan keyin o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishlayotgani. Bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha har yili mustaqil baholash o‘tkazilib, natijalar ochiq e’lon qilinishi kerak.

Yettinchi qadam — maktab va texnikumni huquqiy jihatdan bog‘lash. Har bir maktabni bazaviy texnikumga biriktirish, texnologiya fanining bir qismini texnikum ustaxonalarida o‘tkazish, 10-11-sinflardagi kasbiy modullar natijalarini texnikumda hisobga olish hamda maktab va texnikumning umumiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilash tartibini normativ hujjat bilan mustahkamlash zarur.

Xorazm va Qashqadaryodagi “Kasb shaharchalari”ni shu yondashuvni sinovdan o‘tkazadigan va yangi shaharchalar jamoalarini tayyorlaydigan metodik tayanch markazlar sifatida belgilash maqsadga muvofiq. Institutimiz yagona metodika, kasbiy mentor tayyorlash dasturi va samaradorlik mezonlarini ishlab chiqishda o‘z ilmiy-metodik salohiyatini safarbar etishga tayyor.

Kelajak shu yerda yaratiladi

Har bir “Kasblar shaharchasi”da har kuni kichik, lekin juda katta ma’noga ega voqea ro‘y beradi. O‘n uch yoshli bola birinchi marta simulyatorda payvand chokini tortadi, quyosh panelini ulaydi yoki dronni osmonga ko‘taradi va uning ko‘zlarida “men ham uddalayman” degan ishonch uchquni chaqnaydi. O‘sha lahzada bolaning o‘ziga qarashi o‘zgaradi. Bir umrlik yo‘lning ilk qadami aynan shunday lahzalardan boshlanadi.

Xiva va Buxoro, Samarqand va Shahrisabzning asrlar osha bizgacha yetib kelgan obidalari nomi tarixda qolmagan minglab ustalar, me’morlar va hunarmandlar qo‘li bilan bunyod etilgan. Ajdodlarimiz kasbni muqaddas bilgan, hunarni otadan bolaga meros qilib qoldirgan. Bugun Uchinchi Renessans poydevorini barpo etar ekanmiz, bu poydevor olimlar va mutafakkirlar bilan bir qatorda o‘z ishining ustasi bo‘lgan millionlab hunarmand, muhandis va mutaxassislar bilan mustahkam bo‘ladi.

Qashqadaryoda Germaniyaga otlanayotgan yoshlar bilan suhbatda Prezidentimiz ularga otalarcha samimiyat bilan bunday dedi: “Kasbli bo‘lsangiz, hech qachon kam bo‘lmaysizlar. Bilim va hunarni puxta egallasangiz, qayerda bo‘lmang, o‘z o‘rningizni topasizlar”.

Davlatimiz rahbari bu imkoniyatdan to‘g‘ri foydalangan yoshlar o‘zlari, farzandlari va nevaralarining farovon hayotiga zamin yaratishini ham alohida ta’kidladi.

Bu so‘zlarda har bir ota-onaning yuragidagi eng ezgu orzu mujassam: farzandim o‘z o‘rnini topsin, hech kimga muhtoj bo‘lmasin, halol mehnati bilan el-yurt hurmatini qozonsin. “Kasblar shaharchasi” — shu orzuni hayotga aylantiradigan maskan. Uning darvozasidan kirgan har bir bola bu yerdan o‘zini anglagan, o‘z yo‘lini ko‘rgan, kelajagiga ishongan holda chiqishi kerak. Bu — pedagoglar, olimlar va kasbiy ta’lim mutaxassislarining eng sharafli vazifasi. Zero, kasbli inson hech qachon kam bo‘lmaydi, kasbli xalqning esa kelajagi hamisha porloqdir.

Yozuvni takomillashtirishning iqtisodiy samarasi e’tiborga loyiq. Harf birikmalarining alohida grafik belgilar bilan almashtirilishi yaratilajak matnlar hajmi qisqaroq bo‘lishiga imkon beradi. Masalan, o‘zbek lotin yozuviga asoslangan amaldagi yozuv tizimidagi 14 shrift o‘lchamli 100 sahifalik matnda sh, ch, o‘ va g‘ shakllarini tegishlicha sh, ch, o‘ va g‘ harflari bilan almashtirish natijasida matn hajmi besh sahifaga qisqarishi mumkin.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 29-oktabr, 224-son

www.yuz.uz yuz.uz yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Mulohaza



Abdumannon HASANOV,
O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori o‘rinbosari, filologiya fanlari doktori

MILLIY YOZUV, TARIXIY MEROS VA ZAMONAVIY EHTIYOJLAR UYG‘UNLIGI

Alifbo — shunchaki harflar majmuasi emas. U milliy tilning yozma ifodasini, avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy aloqani, ilmiy va adabiy meros saqlanishi hamda jamiyatning zamonaviy axborot makonidagi imkoniyatlarini belgilaydigan muhim vosita. Shu bois, o‘zbek lotin alifbosini takomillashtirish masalasi nafaqat tilshunoslar, balki ta’lim, nashriyot, davlat boshqaruvi, axborot texnologiyalari va keng jamoatchilik uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.



Bugungi kunda kompyuter orqali lotin yozuviga asoslangan amaldagi alifboda matn yaratishda o‘, g‘ harflarini yozish uchun anchagina mehnat va diqqat, vaqt sarf etiladi. Xususan, to‘g‘ri so‘zini yozish uchun klaviatura tugmalarini o‘n besh marta bosish kerak (holbuki, so‘z besh harfdan iborat). Bu kabi qiyinchilikni faqat o‘, g‘ harflarini xato yozish orqaligina “chetlab o‘tish” mumkin. Tan olish kerakki, ko‘pchilik ayni shu qiyinchiliklarni yengish uchun ham “xato qilish”ga majbur bo‘lardi. Zero, kishi muayyan ishni imkon qadar tez va oson bitirishga intiladi. Biroq lotin yozuviga asoslangan amaldagi alifboda qo‘llanilgan o‘ va g‘ harflari, shuningdek, sh va ch harf birikmalari ayni shu jihatdan vaqt va diqqat o‘g‘irlashga sababchi bo‘lib qolayotgan edi. Yaqinda Prezidentimiz tomonidan imzolangan “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartirish kiritish haqida”gi qonun ayni shu muammo yechimi sifatida hayotimizdagi muhim voqealardan biri bo‘ldi.

Mazkur qonun amaldagi O‘ o‘, G‘ g‘, Sh sh va Ch ch shakllarini tegishlicha Ö ö, Ğ ğ, Ş ş ва Ç ç harflari bilan almashtirishni nazarda tutadi. Ushbu taklifning asosiy mohiyati hozirgi yozuvda ayrim tovushlarni ifodalash uchun qo‘llanayotgan ikki belgili, apostrofli birikmalar o‘rniga yaxlit harflarni yozuv amaliyotiga joriy etish va shu orqali ish unumdorligini oshirish va milliy yozuvimizning raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashuviga erishishdir. Bu islohot natijasida yozuv ixchamlashadi, harflarning grafik yaxlitligi ta’minlanadi va o‘zbek lotin alifbosining amaliy imkoniyatlari kengayadi.

Lotin yozuviga asoslangan amaldagi yozuvda qayd etilgan matn boshqa yozuv tizimiga (masalan, kirill yozuviga) o‘girilganda O‘ o‘, G‘ g‘, Sh sh va Ch ch kabi harflar kompyuter tomonidan ikki belgi sifatida “o‘qiladi” va shunga mos tarzda qayta ishlanadi. Chunonchi, lotin yozuviga asoslangan amaldagi yozuvda yaratilgan matn kirill alifbosiga o‘tkazilganda o‘ harfi оъ tarzida, g‘ harfi гъ tarzida, sh, ch harf birikmalarini сҳ tarzida o‘giriladi. Bu kabi holatlar ham lotin yozuviga asoslangan amaldagi yozuv asosida yaratilgan matnlarni kompyuter dasturlari orqali qayta ishlashda ancha-muncha muammoli vaziyatlarni yuzaga keltirardi.

Amaldagi yozuvda sh va ch birikmalari o‘zbek tilidagi muayyan undosh fonemalarni ifodalaydi. Har bir tovushni alohida va yaxlit harf bilan ifodalash yozuvning grafik tuzilishini soddalashtiradi. Bunda tovush, fonema va harf tushunchalarining o‘zaro munosabatini ham hisobga olish muhim. Tovush nutqda talaffuz qilinadi, fonema til birliklarining ma’nolarini farqlashga xizmat qiladi, harf esa yozuvda tegishli fonemalarni ifodalaydi. Shu jihatdan islohot o‘zbek tilidagi muayyan fonemalarni yozuvda yaxlit grafik birliklar orqali ifodalashga, alifboning ichki izchilligini va qulayligini oshirishga xizmat qiladi.

Yozuvni takomillashtirishga doir muhokamalarda joriy davrga qadar yaratilgan manbalar bilan vorisiy bog‘liqlik masalasi alohida o‘rin tutadi. Lotin yozuviga asoslangan amaldagi alifboda yaratilgan kitoblar, gazeta va jurnallar, ilmiy nashrlar, adabiy asarlar hamda lug‘atlar xalqimizning boy ma’naviy va intellektual merosini tashkil etadi. Yangi grafik shakllar joriy etilishi bu merosdan foydalanish imkoniyatlarini cheklamasligi, aksincha, mavjud manbalarni saqlash va ulardan foydalanish imkoniyatini bera olishi kerak. Qonun orqali belgilangan yangi shakllar bu boradagi talablarga javob beradi. Xususan, o‘ va g‘ harflarining ö va ğ shakllariga o‘tkazilishi shu jihatdan muhim. Taklif etilgan yangi belgilar avvalgi harflarning asosiy grafik shaklini saqlaydi: Ö harfida O, Ğ harfida esa G asos bo‘lib qoladi. Ularning farqi qo‘shimcha diakritik belgilar orqali ifodalanadi. Shu sababli bu o‘zgarishlar mutlaqo yangi grafik tizimga o‘tishni emas, mavjud yozuvning ayrim unsurlarini takomillashtirishni anglatadi. Harflarning shakliy yaqinligi avvalgi yozuvda bitilgan matnlarni tanish va o‘qishda katta qulaylik yaratadi. Shuningdek, sh va ch birikmalarini alohida harflar bilan ifodalash eski yozuvdagi matnlar mazmunini o‘zgartirmaydi. Bundan tashqari, ko‘pchilikning ushbu harflarni yaxshi tanishi, endi savod chiqaradigan yoshlarning esa xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida sh va ch harf birikmalari bilan tanishishi ularning avvalgi o‘zbek lotin yozuvida yaratilgan matnlarni o‘qishida qo‘l keladi. Demak, yangi grafik shakllar joriy etilishi o‘zbek lotin yozuviga asoslangan amaldagi yozuvda shu paytgacha yaratilgan adabiyotlardan foydalanish imkoniyatini yo‘qqa chiqarmaydi.



Shu bilan birga, o‘ va g‘ harflarini yozishda apostrofga o‘xshash belgilardan foydalanish bilan bog‘liq texnik muammolarni bartaraf etish imkoniyati paydo bo‘ladi. Amaldagi yozuvda apostrof (’) va tashqi ko‘rinishi unga o‘xshash boshqa belgilarning turlicha qo‘llanishi natijasida bir so‘zning bir necha texnik shakli yuzaga kelardi. Masalan, o‘rta so‘zini yozishda o dan keyin Unicode tizimida ’ (U+2018), ’ (U+2019), ’ (U+0027), ’ (U+0060), ´ (U+00B4), ` (U+02CB), ˊ (U+02CA) kabi bir qancha belgilardan istalganini foydalanish hisobiga texnik jihatdan turli “harf”lar shakllantirilardi. Bunday texnik tafovutlar elektron qidiruv, matnlarni taqqoslash, imlo nazorati, matnlarni avtomatik qayta ishlash hamda elektron til korpuslarini shakllantirish jarayonlarida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. O‘ va g‘ harflarini mos ravishda ö va ğ shaklida yozish bu harflar tarkibida apostrofga o‘xshash belgi ishlatish zaruratini bartaraf etib, yozuvning texnik bir xilligini ta’minlashga yordam beradi.

O‘ va G‘ o‘rniga Ö va Ğ harflari qo‘llanishi mazkur muammoning yechimi sifatida har bir tovush alohida, yagona va yaxlit belgi (harf) bilan ifodalanishiga imkon beradi. Bunda apostrofga o‘xshash belgilar turlicha qo‘llanilishi bilan bog‘liq chalkashliklar yo‘qoladi. Natijada yozuvning texnik bir xilligi, matn (so‘z) qidirish va qayta ishlash qulayligi oshadi.

Bugungi kunda yozuv samaradorligi uning qog‘ozda qanday ko‘rinishigina emas, balki elektron muhitda qay darajada moslashishi bilan ham belgilanadi. Qidiruv tizimlari, elektron lug‘atlar, matn korpuslari, avtomatik tarjima, nutqni tanish va sun’iy intellektga asoslangan dasturlar standartlashtirilgan yozuvga ehtiyoj sezadi. Bir tovushni ifodalovchi ikki harfli birikma o‘rniga bitta harf qo‘llanishi matnlarni transliteratsiya qilish, so‘zlarning grafik tuzilishini aniqlash va baholash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Alifboni takomillashtirishning yana bir muhim jihati uning qardosh turkiy tillar yozuvlari bilan mushtarakligini ta’minlashidir. Turkiy dunyo umumiy alifbo komissiyasining 2024-yil 11-sentyabrda Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan uchinchi yig‘ilishida Umumturkiy alifbo (Common Turkic Alphabet) qardosh turkiy xalqlar tomonidan ma’qullangan edi. Milliy alifbomizda isloh etilayotgan to‘rt harf ham mazkur alifbodagi tegishli shakllar bilan bir xil. Bu esa Ö, Ğ, Ş va Ç kabi harflar turkiy tillarning mushtarak yozuvlaridagi matnlarni qiyoslash, umumiy elektron resurslar yaratish, tilshunoslik tadqiqotlarini bahamjihat olib borish va axborot almashinuvi imkoniyatlarini kengaytirishga ham yordam beradi.

Yozuvni takomillashtirishning iqtisodiy samarasi e’tiborga loyiq. Harf birikmalarining alohida grafik belgilar bilan almashtirilishi yaratilajak matnlar hajmi qisqaroq bo‘lishiga imkon beradi. Masalan, o‘zbek lotin yozuviga asoslangan amaldagi yozuv tizimidagi 14 shrift o‘lchamli 100 sahifalik matnda sh, ch, o‘ va g‘ shakllarini tegishlicha ş, ç, ö va ğ harflari bilan almashtirish natijasida matn hajmi besh sahifaga qisqarishi mumkin. Nashriyot-matbaa ishlarida matn hajmi qisqarishi qog‘oz va bo‘yoq sarfini kamaytirishga, shu asosda xarajatlarni tejashga xizmat qiladi. Tejamkor texnologiyalar tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan bugungi davrda bu kabi jihatlar ham alohida e’tiborga loyiq.

Taklif etilayotgan islohotning afzalligi shundaki, u yozuv tizimining barcha unsurlarini yangidan shakllantirishni emas, balki joriy alifbodagi to‘rtta harfning grafik ifodasini takomillashtirishni nazarda tutadi. Shu bois, bu o‘zgarish mavjud yozuv tizimidan butunlay voz kechish degani emas. Aksincha, alifboning umumiy grafik asosini saqlagan holda ayrim harflarning ifodalanish usulini qulaylashtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv avvalgi davrda yaratilgan yozma manbalar va adabiyotlardan foydalanishni davom ettirish, shu bilan birga, yangi yozuv shakllarini amaliyotga joriy etishga yo‘naltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, O‘ o‘, G‘ g‘, Sh sh va Ch ch shakllarini Ö ö, Ğ ğ, Ş ş va Ç ç harflari bilan almashtirishni nazarda tutuvchi qonun o‘zbek lotin yozuvining grafik ixchamligini oshirish, apostrof bilan bog‘liq texnik noqulayliklarga barham berish, elektron matnlar yaratish va ularni qayta ishlashni yengillashtirish, nashriyot jarayonlarida resurslarni tejash va qardosh turkiy tillar bilan yozuv mushtarakligini kuchaytirish kabi qator imkoniyatlar reallashishiga yo‘l ochadi.

Milliy yozuvni takomillashtirish tilimizning bugungi ehtiyojlariga javob berish bilan birga uning kelajakdagi taraqqiyoti uchun mustahkam asos yaratish demakdir. Shunday ekan, o‘zbek lotin alifbosini takomillashtirish masalasiga tarixiy meros, milliy manfaatlar va zamonaviy texnologiyalar uyg‘unligi nuqtai nazaridan qarash, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish va yozuvimizni yanada qulay, izchil hamda raqamli muhitga mos tizimga aylantirish yo‘lidagi muhim qadam sifatida baholanishi lozim.

E’tirof

SHU PAYTGACHA O‘QITUVCHIGA UY SOVG‘A QILINMAGAN EDI

Yillar davomida o‘z kasbiga fidoyilik, bu yo‘ldagi mehnat va izlanishning munosib e’tirofi andijonlik Shahnoza Abdusalomovani “Yil o‘qituvchisi” maqomiga erishtirdi. Shu bois, u suhbatimiz avvalida “Ustozlik men uchun kasb emas, taqdirim”, deya gap boshladi:



“O‘tgan yili Prezidentimiz O‘qituvchi va murabbiylar bayramida “Yil o‘qituvchisi” ko‘rik-tanlovi o‘tkaziladi va g‘olib bo‘lgan ustozlarga uy beramiz” deganida xursand bo‘lib, o‘z oldimga maqsad qo‘ygandim. Niyatimga yetib, ushbu tanlovda qatnashdim va g‘oliblikni qo‘lga kiritdim. Shuning uchun ham eng baxtli ustozlardan biriman deb bemalol ayta olaman. Muallimning oylik maoshi ming dollarga yetganining amaldagi isboti — mening bugungi maoshim. Chunki men ming dollar ham emas, bir yarim ming dollarga yaqin maosh olyapman.

Bundan tashqari, o‘qituvchilarning farzandlari uchun to‘lov-kontrakt summasiga 30 foiz chegirma joriy etilishi oilamiz uchun yana bir quvonchli xabar, sovg‘a bo‘ldi. Andijon davlat universitetining filologiya fakultetida o‘qiyotgan qizim uchun 11 million so‘m to‘lashimiz kerak edi. Chegirma bilan 8 million so‘m miqdorida to‘lov qilamiz.

2025/2026-o‘quv yili men uchun ancha omadli keldi. Kuzgi attestatsiyada 94 ball bilan 70 foizli ustamani qo‘lga kiritdim. Vazir ustamasiga nomzod bo‘ldim. Shu ko‘rsatkich bilan o‘z-o‘zidan “Yil o‘qituvchisi” tanlovining birinchi bosqichiga o‘tibman. Tanlovning har uchala bosqichi juda adolatli, shaffof bo‘ldi. Kuchli, bilimli ustozlar bilan bellashdik. Shular orasida g‘oliblikka erishishimda, albatta, hamkasblarimning bildirgan ishonchi, qo‘llab-quvvatlovi muhim o‘rin tutadi. Jamoamiz juda ahil.

36 yil oldin shu maktabning 1-sinfiga qabul qilinganman. Maktabimga mehrim boshqacha edi. Shuning uchun institutdan to‘g‘ri Xonobod shahridagi 2-umumta’lim maktabiga keldim. Onam shu maktabda ishlagan. Otam ham o‘qituvchilikdan nafaqaga chiqqan. Ularning darslarini, ish faoliyatini kuzatib, pedagog bo‘lishni orzu qilganman.

O‘qituvchilikni katta mas’uliyat va sharaf deb bilaman. Ayniqsa, mening zimmamda ikki hissa mas’uliyat bor. Chunki ustozlarning farzandiman. Butun borlig‘im, hayotim, yuragim shu soha bilan bog‘langan. Har bir o‘quvchiga alohida yondashishga harakat qilaman. Ularni kitob mutolaasiga undayman. Chunki o‘zim ham badiiy asarlar o‘qishni yoqtiraman. Kitob mutolaasi sevimli mashg‘ulotim”.

Qahramonimizning kuchi — o‘quvchilarining ko‘nglidan chuqur o‘rin olganida. Bu esa ustoz va shogirdga birinining mehrini, muvaffaqiyatini doimiy his qilish, ko‘rib yurish imkonini beradi. U juda ko‘p yigit-qizlarni mustaqil hayotga uchirma qildi. Ayniqsa, o‘zi bilan yelkama-yelka ishlayotgan shogirdlari ustozning ko‘zini quvontiradi. Bu unga quvonch bag‘ishlaydi, albatta. Zero, ularni o‘zining ustozlik yo‘li bilan ruhlantira olganidan xursand bo‘ladi.

— Ta’lim bergan barcha o‘g‘il-qizlarim farzandimday bo‘lib qoladi, — deydi sovrindor ustoz. — Buni onam menga doim ta’kidlar edi. Shuning uchun farzandlarim kelajagiga qanday kuyunsam, shogirdlarim uchun ham shunday jon kuydirishimga to‘g‘ri keladi. Bundan aslo nolimayman, aksincha, har bir o‘quvchimning hayotida o‘rnim borligidan, ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsata olayotganimdan faxrlanaman, g‘ururlanaman. Ayniqsa, bugun fidoyi bo‘lmaslikning iloji ham yo‘q. Axir qaysi davrda o‘qituvchi bitta tanlovda uy yutib olgan? Pedagoglarning farzandi sifatida aytamanki, o‘qituvchiga hech qachon uy sovg‘a qilinmagan. Bir paytlar eng katta tanlovlarda ham g‘olib ustozlarga bitta faxriy yorliq berilgan. Nari borsa, esdalik sovg‘alar bo‘lardi. Mana, nega odamlar “Yil o‘qituvchisi”ga 50 ming dollardan ko‘proq pul mukofoti beriladi degan xabar tarqalganida ishonmadi. Mablag‘ni qo‘limizga olganimizni ko‘rganida esa hamma havas qila boshladi. Shu ma’noda, bugungi kunda biz, ustozlar maza qilib, yayrab-yashnab, fidoyilarcha ishlashimiz kerak. Shunda imkoniyatlar ham o‘z-o‘zidan kelaveradi. Bu kasbimizdan, hayotimizdan rozi bo‘lib yashashimizga ruhlantiradi ham. Ayniqsa, yangi uy sotib olish baxtiga muyassarlik zavqi bir umr yodimizdan o‘chmaydi. Ayni paytda men shu zavq, shu baxtdan masrurman. Avvalo, ota-onam, hamkasblarim, shogirdlarim, oilam quvonchimga sherik bo‘lib turibdi. Bunday baxt menga havas qilayotganlarning barchasiga, albatta, shogirdlarimga ham nasib qilishini istayman.

Eng sharafli kasb sifatida ustozlik, o‘qituvchilik o‘z sohibiga kutilmagan darajalar va yutuqlarni taqdim etishi bilan ham obro‘lidir. Pedagogning nufuzi karrasiga oshayotgan mamlakatda esa bu kasb egalarining mukofotga yangi xonadon olishi ham an’anaga, tabiiy holatga aylanib boradi.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1046.
29213 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Bekqul Egamqulov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.